

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo’lyozma huquqida

UDK

MAMATOV RAVSHAN RUSTAMOVICH

**MAVZU: “UZLUKSIZ TA’LIMDA O‘SMIRLAR IJODIY
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI”**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ihtisosligi: 5A 140802- “Psixologiya”

**Psixologiya bo’yicha magistr darajasini olish uchun magistrlik
dissertatsiyasi**

Ilmiy rahbar:

p.f.n. M.Xalimova

Andijon-2011

**Mavzu: Uzluksiz ta’limda o‘smirlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy
psixologik xususiyatlari.**

Mundarija.

Kirish

2-8

I BOB	O'smirlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari va ularning nazariy taxlili	
1.1	Ijodiy qobiliyat-jaxon psixologlari tadqiqot muammosi sifatida.	9-12
1.2	O'smirlik yoshining itimoiy psixologik xususiyatlari.	13-20
1.3	Komil inson muammosi sharq mutafakkirlari qarashlarida ifodalanishi	21-35
II BOB	O'smirlarni intellektual ijodiy rivojlantirishda qobiliyat va iste'dodning psixologik xususiyatlari	
2.1	O'smirlarning intellektual ijodiy saloxiyatini rivojlanishida qobiliyat va istedadning o'rni.	43-52
2.2	Intellektual ijodiy saloxiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.	52-55
III-BOB	O'smirlarning ijodkorlik qobiliyatlarini baholashning psixologik usullari	
3.1	O'smirlarning ijodkorlik qobiliyatlarini baholash usullari va mezonlari hamda ularga zamonaviy yondashuv.	56-60
3.2.	O'smirlar ijodiy qobiliyatlarini tadqiq etish va olingan natijalarni qayta ishlash va umumlashtirish.	61-66
	Xulosa.	71
	Tavsiya.	72
	Foydalangan adabiyotlar.	73-76

Kirish

Mavzuning dolzarbligi.

Istiqloлга erishgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xalqimizning xayoti, davlatimizning siyosiy faoliyatida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik bois, xalqimiz o'zining buyuk kelajagini yaratmoqda. Uni yaratishda ulug' ajdodlarimiz – buyuk pedagog – faylasuflar, din arboblari, mutasavvif donishmandlar, ulug' allomalarning ta'limotlarini o'rganish sari yo'l ochildi. Asrlar mobaynida xalqimiz saqlab kelayotgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy tadqiq qilib rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratildi.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaginidek, Vatanimiz kelajagi islohatlarning taqdiri va ularning natijalari, xalqimizning bilim darajasi davr talabiga va taraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassislar yetkazib berib, o'rnimizni egallashlariga bog'liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratayapti. Shunga ko'ra, yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasidagi ko'tarilmoqda.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud:

Birinchidan, o'quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi davlat tarmoq ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash.

Ikkinchidan, o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasini to'liq qamrab olishga erishish.

Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasidan tashqari fundamental va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o'zlashtirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash shartlari hisoblanadi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillaridan biri, ta'limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzidir.

«Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs- fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ruyobga chiqariladi. Ma'naviy qadriyatlarimiz rivojiga katta e'tibor berilayotganligining sababini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha izohlaganligi diqqatga sazovordir: «Biz musulmon dini xaqida gapirganda avvalo, Allox va Uning Rasulini, o'zimizga ruxan yaqin bo'lgan ulug' allomalimiz, ulug' imomlarimizni tasavvur qilamiz. Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz xurmat bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Baxouddin Naqshband, Axmad Yassaviy, Abdulxoliq g'ijduvoni, Zamaxshariy kabi piru komillarimizni nazarda tutamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosi va ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini, tarixiy, madaniy, ma'rifiy merosni tiklash ulug' mutafakkirlarimizning ta'limotlarini o'rganish, pedagogik ilmiy-nazariy jihatdan taxlil qilish, shu asosda tug'ilgan fikr va muloxazalarni yosh avlod ongiga singdirish, yurtimizda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun dunyoviy ta'lim yutuqlarini baxolash bilan birga ma'naviyat olamining muqaddas kitobi va risolalari, tasavvuf namoyandalari asarlaridan keng foydalanish lozim (Karimov I.A. Biz kelajagimizni ыз =yilimiz bilan =uramiz. T.7. –T.: Bzzbekiston. 1999. -349-354 b.)

Tadqiqotning maksadi: O'smirlar ijodiy kobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini amaliy tajribalar asosida yrganish. Intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish; yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari

Beliglangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi

1-vazifani belgilab olamiz:

1. Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash.
2. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish.
3. Yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganish.
4. Yoshlarning ma'naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish.
5. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish.

Asosiy 2-vazifa:

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;
- fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- ta'lim menejmenti sohasida innovatsion takliflarni o'rganish va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichiga muvofiq ularni ta'lim tizimiga tadbiq etish;

Tadqiqotning predmeti. O'smirlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy taxlillari asosida tadqiq etish

Tadqiqotning obekti. O'smirlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish jarayoni.intellektual salohiyatini oshirish imkoniyatlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi.Agar:

O'smirlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy ta'sirlar bilan o'z ustida ishlashning zamonaviy gsullardan foydalanilib bola imkoniyatlarini oshirish uchun shart sharoitlar yaratilsa , ularning ijodiy faolligi yaqqol ko'rinashi mumkin.

Xar bir o'smir shaxsining individual psixologik xususiyatidan kelib chiqib ta'limning takomillashtirilsa, ularning ijodiy qobiliyatlarining cho'qqisi bo'lgan iste'dodni rivojlantirish mumkin.

Ijtimoiy shart sharoitlarning mavjudligi, ota onalarning o'qituvchilar bilan xamkorligi asosida biz o'smirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va intellektual salohiyatini oshirishda saraliroq natijalarni erishish oshishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi.

Barkamol-ijodkor shaxsni shakllantirishning metodologiyasi bu kadrlar tayyorlash milliy modeli asosiy tushuncha va tamoyillarini talqin qilish, ularni amaliyotga tadbiq qilish jarayonlarini ilmiy o'rganish, o'zgartirish uslublari majmuasi, degan ta'rif paydo bo'ladi. Bu bilan metodologiya tushunchasiga xos bo'lib kelgan nazariylik amaliylik bilan bog'lanadi. Shuningdek,

Sharq mutafakkirlarining shaxsini shakllantirish haqidagi falsafiy ta'limotlari, axloqiy qarashlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, pedagogika va psixologiya sohasidagi ilg'or tajribalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va shu asosida yaratilgan ko'plab monografik tadqiqotlar metodologik asos bo'ldi. Bundan tashqari tarbiya psixologiyasi muammosi yechimida ijtimoiy muhitni ahamiyatiga bag'ishlangan (bu o'rinda ijtimoiy institutlar ko'zda tutiladi) qarorlari, farmon va farmoyishlar, me'yoriy xujjatlar ham ilmiy tadqiqot ishiga asosiy manbaa bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy falsafiy, psixologik –pedagogik, tarixiy adabiyotlar, o'quv metodik qo'llanmalarni ilmiy psixologik-pedagogik jihatdan taxlil etish;
- Tadqiqot mavzusi bo'yicha respondentlar o'rtasida suhbat va so'rovnomalarni tashkil etish;
- Matematik –statistik tahlil va tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Tarbiya psixologiyasi yechimida ijtimoiy institutlar faoliyatida yoshlarda zaruriy xulq-atvor va odatni shakllantirish ilmiy- pedagogik muammo sifatida asoslandi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy institut tushunchalari izohlandi, ularning rivojlanish tarixi o'rganildi, rivojlanish darajalarini belgilovchi mezonar aniqlandi va omillari ilmiy jihatdan bir tizimga keltirildi. Tadqiqot natijalari asosida, yoshlarda ijodiy qobiliyat va intellektual salohiyatni shakllantirish yuzasidan ilmiy- psixologik va metodik tavsiyalar o'smirlarning psixik rivojlanishidagi ijtimoiy

ta'sirlarning ta'lim tarbiyaviy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot ishida olg'a surilgan fikr- mulohazalar ular o'rtasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarda dasturul amal bo'lib, yoshlar faoliyati mehanizmini ishlab chiqishda muhim ko'llanma sifatida xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijasi o'laroq ishlab chiqilgan tavsiyalar, hulosalardan tuman, viloyat, shahar va xatto Respublika miqyosida ijtimoiy institutlar faoliyati dasturlarini tuzishda foydalanish, tavsiyalarimizdan esa Respublikaning shahar va tumanlarida, mahalla, korxona hamda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yoshlar bilan olib boriladigan ish jarayoniga tadbii qilishda o'zining samarali natijalarini berishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi. Tadqiqot ishining ilmiy xulosalari va natijalari Andijon Davlat Universiteti pedagogika fakulteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining pedagogik amaliyoti davrida, kafedrada o'tkaziladigan turli seminar va yig'ilishlarda amalga oshirildi.

Tadqiqot ishining sinovdan o'tishi. Tadqiqotning asosiy natijalari ijtimoiy institutlar faoliyati, jumladan Andijon Davlat Universiteti «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, faoliyatida shuningdek, Andijon shaxridagi 2-akademik litseydagi va Andijon pedagogika kolleji yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida sinab ko'rildi.

Himoyaga quyidagi holatlar taqdim etiladi:

- Ijtimoiy institutlar faoliyatida yoshlarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik muammo sifatida mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari, unga qo'yiladigan hozirgi zamon talablari, yoshlarda xulq-atvor va odatlarni shakllantirish bo'yicha yo'nalish.
- O'smirlarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishda joylardagi masalalar hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining hamkorligi mazmuni;
- O'smirlarning ijodiy qobiliyatni shakllantirishda ijtimoiy –tarbiyaviy muhitning yaratilganligi, shaxsni shakllantirish, ijtimoiy faollikni tashkil etish omillari, psixologik-pedagogik shart-sharoitlari;
- Ijodiy qobiliyatni shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari;
- Ijtimoiy muhit vositasida o'smirlarga ijodiy qobiliyatni shakllantirishning ijtimoiy - psixologik jihatlarini va xulq-atvor va odatlarni shakllantirishga doir metodik tavsiyalar.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, 3 bob, 8 band, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'smirlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari va ularning nazariy taxlili.

1.1 Ijodiy qobiliyat-jaxon psixologlari tadqiqot muammosi sifatida.

Ijodiy qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma'lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar izlanishlar olib borganlar. Insonning imkoniyatlarini o'rganishga sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Ananov, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasishev), G'arb olimlari (A.Bine, T.Simon, F.Galton, V.Shtern, U.Ollport, K.Rodgers) kabilar katta xissa qo'shganlar. Ushbu muammo ustida Uzbekiston psixolog olimlari (E.G'oziey, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, B.R.Kodirov, V.A.Tokareva va boshqalar) ham izlanish olib borganlar.

Endi zamonaviy psixologiyada ijodiy qobiliyatlarning o'rganish usullarini ko'rib chiqamiz. Psixologik adabiyotlarda maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishga doir ko'plab tajribaviy ishlar qilingan. Ularga xos bir necha ishlarda to'xtaymiz.

B.M.Teplovning fikricha, musqaviylikning asosiy namayon qilib turadigan narsa musiqani xis qilish, shuningdek musiqani emotsional xis qila olishlik musqaviy qobiliyatning asosiy mazmunidir.

B.M.Teplov musqaviylikni tizimini ko'rib chiqadi va quyidagilarni kiritadi: musiqani eshitish xususiyati, musiqa ritmi va musiqiy xotira. Matematik qobiliyatlar ustida V.A.krutetskiy ishlagan. Jumladan u "Matematik qobiliyatlar psixologiyasi" monografiyasida matematik qobiliyatlar va ularning tizimini keng yoritib bergan. U idrok, tafakkur, xotiraxayolning individual xususiyatlarini aniqlab, ularni matematik faoliyatda namayon bo'lishini (matematik o'zlashtirishda) tadqiq qilgan. Matematik materialni o'zlashtirishda idrokning ahamiyatini aniqlagan V.A.Krutetskiy qobiliyatli o'quvchilarda o'ziga xos materialni "ichki" analitik – sintetik tahlil qilish, qayta ishlash xususiyati, "joyida" masalani tizimini idrok etib, uni asosiy munosabatlarini ochadilar deb hisoblaydi. Matematikaga alohida iste'dodi bo'lgan o'quvchilar o'ziga xos "matematik aql" bilan xarakterlanadilar – ular borliqning mantiqiy va matematik mazmunini topa oladilar, ulardagi mantiqiy va matematik kategoria aniqlaydilar, ko'pincha xodislarni matematik munosabatlar nuqtai – nazariyasi orqali qabul qiladilar. Tasviriy san'atga xos qobiliyatlarni V.I.Kirienko o'rgangan. Uning "Tasviriy faoliyat qobiliyatlari psixologiyasi" kitobida tasviriy qobiliyatning psixologik tahlili berilgan. Tasviriy faoliyatda idrokning xususiyatlarini o'rganish jarayonida V.I.Kirienko tasviriy san'atda qobiliyat xodisalarini yaxlit va sintetik ko'rinishda idrok etishda namayon bo'lib, u badiiy asosiy mazmuni ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tasviriy faoliyatdagi qobiliyatlardan biri proporsiyalarga baho berishdir. Yana bir tasviriy qobiliyatlarning xarakterli tomoni ranglar munosabatini baholay olish va perspektiv qisqartirishlarga baho berishdir. Perspektiv qisqartirishlarga baho berish - tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biridir va uni to'g'ri hal qilinishi tasviriy san'atdagi qobiliyatlarning asosiy ko'rinishidir. Badiiy ijodiyot jarayonida ko'rish tasavvurlari muhim ahamiyatga ega. Biror bir materialni olib uni anglatilgan va maqsadga yo'naltirilgan ijod orqali badiiy obraz yuzaga keladi va predmetning uo'ziga xos xususiyatlari namoyon buladi. A.G.Kovalev tasviriy faoliyatda asosiy tayanch sifatida - qo'llar chaqqonligi deb hisoblaydi. Bundan tashqari ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishida dam insonning emotsional kayfiyati muxim ahamiyatga egadir. Tashkilotchilik qobiliyatlarni uzoq vaqt L.I.Umanskiy o'rgangan¹³. Muallif tashkilotchilik qobiliyatlarining tizimini yaratadi. Uning fikricha tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

a) shaxsning yo'nalganligi:

b) uning tayyorgarligi:

v) umumiy xususiyatlar (kirishimlilik, rivojlanishning umumiy darajasi, amaliy aql, kuzatuvchanlik, faollik, tashabbuskorlik, qat'iylik, tashkilotchilik, o'z-o'zini boshqara olishi).

g) maxsus xususiyatlar tashkilotchilik xis, psixologik kashfiyotchilik, psixologik taqt: emotsional - irodaviy ta'sir etish, talabchanlik, tanqidiylik, tashkilotchilik faoliyatiga moillik):

d) shaxsiy individual xususiyatlar.

Biz bolalarni o'qitish va tarbiyalashning eng muhim nazariy va amaliy jihatlarini bilishimiz kerak. Buning uchun avvalo, quyidagi psixologik - pedagogik muammolarni tushunib olmoq'imiz lozim:

- o'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasi;
- o'quvchi shaxsining shakllanishi va o'quv-mehnat faoliyati mazmuni;
- o'quvchi shaxsi tabiatining tavsifnomasi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

Mazkur muammo bo'yicha chet ellar hamda Respublikamizda bir qator olimlar ish olib borishgan. Iqtidorli bolalar psixologiyasi muammosi bo'yicha psixologlar D.J.Gilford, P.Torrensa, F.Barrona, K. Teylor, D.J. Kerrol va B. Blum iqtidorli bolalar ta'lim xususiyatlari bo'yicha J.Bryuno.rus psixologlari Matyushkin M.A., Shumakova N.B., Chistyakova G.D., Yurkevich V.S. Shuningdek J.Piaje, E.Torndayk, D.J.Uotson, F.Galton, A.Anastazi, A.Bine, T.Simonlar ham bola psixik taraqqiyotida ta'limning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydilar. Bu ta'limotlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Iqtidorli bolalar psixologiyasi muammosi, muhim muammolariga doir qator ilmiy –amaliy tadqiqotlar pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda. Mazkur muammolar hozirgi zamon faning metadologik tamoyillari asosida, yaqin va uzoq horijiy mamlakatlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g'oyalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. Bu borada M.G.Davletshin o'quvchilarda texnik qiziqishlar, qobilyatlarini shakllanishi yoshlar mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish, kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish yosh va pedagogik psixologiya, qobilyat psixologiyasi kabi masalalarini keng yoritib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. E.G'oziyev ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlanishi, ularning aqliy taraqqiyoti, o'quv faoliyatini boshqarish, komol inson tarbiyasining psixologik muammolarini, B.R.Qodirov yoshlarning individual xususiyatlari, ularning faoliyatga yo'nalishlari, layoqat va birlamchi qobilyatlarining shakllanishi, iqtidorli o'quvchilarning xususiyatlarini, kasb tanlash va boshqa katta muammoni ilmiy jihatdan asoslab berdilar. O'zbekistonlik psixologlar ham psixologoyaning rivojlanishida ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. P.I.Ivanov psixologiyaning umumiy masalalari, psixik hodisalarning bolalarda rivojlanishi, ta'lim psixologiyasi sohasida ("Umumiy psixologiya", "Ta'limning psixologik asoslari") M.G.Davletshin "Qobilyatlarni rivojlanishi", "Texnik qizizishlar", "Qizizish va ta'lim", kabi ko'plab ilmiy – uslubiy qo'llanmalar, M.Vohidov "Bolalar psixologiyasi", E.G'oziyev "Tafakkur psixologiyasi", "Xotira psixologiyasi", "Shaxs Psixologiyasi", B.Qodirov "Qobilyat va iqtidor". Iqtidorli bolalar uchun ta'lim shakllari AQShda iqtidor diagnostikasi va o'qitish uslublarini ishlab chiqish bo'yicha keng tajriba to'plangan, maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan, ular bilan ta'lim –tarbiya olib boradigan o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tishadi. Bu faoliyatda ta'lim vazirligi, fan, universitetlar, kollejlari, mahalliy hokimyat vakillari keng jalb etiladi. Avstriyada xar bir okrugda iqtidorli bolalar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Maktab va maktabdan tashqari tadbirlar tashkil etilgan. Maxsus konkurslar, viktorinalar, olimpiadalar tez-tez o'tkazilib turiladi. Iqtidorli bolalar bilan ishlovchi o'qituvchilar tayyorlashga e'tibor qaratiladi. Buyuk Britaniya qonunchiligida iqtidorli bolalar kategoriyalari qayd etilmagan, lekin oddiy sinflarda iqtidorli o'quvchilarni qo'llab quvvatlash ishlari aktiv olib boriladi. Xar bir maktab iqtidorli o'quvchilarini rivojlanishiga maxsus yordam fondi ajratadi.

Belgiya, Gretsiya, Irlandiya, Italiya, Portugaliya, Fransiya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiyada iqtidorli bolalar universitetlar qoshidagi maxsus maktablar ko'rinishida ochilgan, Germaniyada yozgi "Nemis maktab akademiyasi" lageri iqtidorli bolalarni qobilyatlarini rivojlantirish, tengdoshlari bilan o'aro munosabatlarini to'g'ri to'lga qo'yish maqsadida ochiladi. Xitoy, Koreya, Tayland va Singapurda iqtidorli bolalar uchun maxsus ta'lim ko'zda tutilmagan, lekin har bir universitet qoshida murakkablashgan dastur asosida o'qitiladigan maktablar mavjud. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda har bir maktab qoshida o'quvchilar iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan to'garak ochilgan. Yosh olimlar guruxi tomonidan (D.J.Gilford, P.Torrens, F.Barron, K.Teylor)- iqtidor muammosini individual farqlarni o'rganish bo'yicha psixologiyada nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borib, ular bilan olib boriladigan ta'lim dasturlari va rejalar ishlab chiqdilar. O'tgan asrning 70-yillariga borib

individual farqlar psixologiyasi psixologiya faning aloxida tarmog'iga aylandi. O'tkazilgan tadqiqotlar oz muddatlarda amaliyotga tadbiiq etila boshladi. Psixologiyada yangi tarmoq iqtidorli, lekin o'qishda o'zlashtira olmayotgan bolalarni o'rganishda, ulardagi iqtidorni rivojlanishini to'sib qo'yuvchi omillarning bolalarda o'rganish va iqtidorli bolalarga yordam berish metodlari ishlab chiqila boshladi. D.J.Gilfor, P Torrens, F.Barron, K.Teylor)iqtidor muammosini individual farqlarni organish boyicha psixologiyada nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borib,ular bilan olib borilayotgan talim dasturlari va rejalar ishlab chiqdilar. O'tgan asrning 70-yillariga borib individual farqlar psixologiyasi psixologiya fanining aloxida tarmogiga aylandi. O'tkazilgan tadqiqotlar o'z muddatlarda amaliyotga tadbiiq etila boshladi. Psixologiyada yangi tarmoq iqtidorli,lekin o'qishda o'zlashtira olmayotgan bolalarni o'rganishda, ulardagi iqtidorni rivojlanishini to'sib qo'yuvchi omillarning bolalarda o'rganish va iqtidorli bolalarga psixologik yordam berish metodlari ishlab chiqila boshlandi. D.J.Gilfor tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki iqtidorli bolalar o'zlarining iqtidorini tengdoshlaridan yashirishga, buning natijasida ularda og'ir kechuvchi depressiya holatini kelib chiqishi kuzatilgan. Ta'limda differensial yondashuvining tadbiiq etilmaganligi natijasida, o'rtacha o'quvchiga nisbatan olingan talablar natijasida, ularga nisbatan boshqa tengdoshlari tomonidan salbiy munosabatlarni shakllanishi sabab 80-yillarning boshlarida iqtidorli bolalarning iqtidor va xususiyatlarini o'rganish, rivojlantirish va kelajakdagi imkoniyatlarini tahmin qilish maqsadida yirik xalqaro liyiha ishlab chiqilgan. AQSHda iqtidorli bolalarni liderlik sifatlarini tarbiyalash maxsus o'quv kurslari tashkil etilgan. AQSH ta'lim tizimida differensialta'lim chuqur o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzularni bir necha variantda berilishi, amaliy masala va mashqlarning turli murakkablikda tuzilishi.

O'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasini to'la yoritish uchun biz uning rivojlanish xususiyatlari borasida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim. Insonning fiziologik va ruhiy rivojlanishi bola yoshini davriylashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Inson rivojlanishi – bu uning a'zolarini miqdor va sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir. Rivojlanish natijasi – kishining ham biologik ham ijtimoiy mavjudligidir. Biologik rivojlanish bu o'zida inson a'zolarini bioximik, fiziologik va morfologik o'zgarishlarini esa inson ongining ma'naviy va aqliy kamolotga erishish jarayoni sanaladi. Materialistik falsafa ta'limoti nuqtai nazaridan, rivojlanish – bu yirik materiya bo'lib, materiya harakatining o'ziga xosligidir. Bu harakatda eskilari o'lib, yangilari paydo bo'laveradi.

Inson rivojlanishi juda murakkab va ziddiyatli jarayondir. Inson rivojlanishi borasida bir qator ilmiy nazariyalar mavjud. Masalan, psixolog olimlar – M.G.Davletshin, G'.Shoumarov, E.G'oziev, Z.Nishonova, V.Karimova va boshqalar oliy psixologik hosilaning madaniy-tarixiy rivojlanishi nazariyasini ilgari surdilar. Quyida ana shu nazariyaning asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz:

1. Hozirgi zamon kishisining ruhiyati va hulqi ikki jarayon munosabatlarining biologik yetilish va bilish natijasidir. har ikki jarayon ham bola dunyoga kelishi bilan paydo bo'ladi va rivojlanish yo'llarida bir-birlari bilan amaliy ravishda uyg'unlashadi.

2. Har qanday ruhiy hosila o'z irsiyati bo'yicha tug'ma, tabiiy yoki madaniy bo'ladi.

3. Belgi va qurollardan foydalanish kattalar tomonidan bolalarga dastlab munosabat va birgalikdagi ashyoviy faoliyatni tashkil etish chog'ida ko'rsatiladi.

4. Tarixiy-madaniy jarayonda inson turli tuman qurollarni yaratdiki, ularning ichidan eng muhimlari mehnat qurollari, til va sanoq tizimlari bo'lib, inson ulardan foydalanish sirlarini o'rganib oladi.

- 5.Yozuvdan foydalanish turlari inson idrok etishdan tortib to fikrlay olish vazifalarini bajara boshladi. Odamlar tomonidan turli tarixiy davrlar ijtimoiy qurolning ikki turi bunyod etildi. U birining yordamida (mehnat quroli) tabiatga ta'sir ko'rsatsa, boshqasi (belgilar tizimi) bilan o'ziga yordam beradi.

6. Mehnat qurollari va tanish tizimlarning amaliy faoliyatda qo'llanishi odamning bevosita ruhiy jarayonidan bevosita ruhiy jarayonga o'tishining boshlanishidir. Ya'ni, boshqaruv vositasi sifatida xuddi shu qurollar va belgilar ishga tushadi.

7. Ta'lim olish bolaga o'z hulqi (faoliyati) va ruhiy jarayonlar (xat xotirani yaxshilash, uning imkoniyatlarini kengaytirish, so'z esa idrok va diqqatni boshqarish vositasi)ni qurol yoki belgilar yordamida boshqarishda tajribaday bo'lib tuyuladi.

8. Qurollar va belgilar dastlab boshqalarning hulq-atvorini boshqarish vositasi bo'lib, keyinchalik bolalarni tarbiyalash vositasiga aylanadi.

Mashhur psixolog olim S.L.Rubinshteyn inson rivojlanishi xususida o'ziga xos yondashuvni ilgari suradi. Unda asosan inson ta'lim va tarbiya jarayonida ro'y beradigan ta'sirlarga tayyor holda tug'ilar ekan. Shu bois bolalar kattalar ta'sirida rivojlanib, insoniyat yaratgan madaniyat mazmunini egallab boradi. Bola rivojlanmaydi ham, tarbiyalanmaydi ham, aksincha, tarbiyalanib va o'sib rivojlanadi, ya'ni bolaning yetilishi va rivojlanishi ta'lim va tarbiya jarayonida namoyon bo'ladi, hamda takomillashadi.

Rivojlanish va ta'lim, rivojlanish va tarbiya birligiga asoslangan jarayonlarning bir-biriga sig'ishib ketishi yagona tizimni tashkil etadiki, unda sabab va oqibat to'xtovsiz quriladi, balki yetilish unga poydevor yaratadi va o'zi ham yetilish va rivojlanishga omil bo'ladiyu ta'lim olish jarayonida bolaning qobiliyati namoyon bo'libgina qolmay, shakllanadi ham. Xuddi shunday, tarbiya va ta'lim jarayonida ro'y beradigan shakllanish va o'zgarishlar tufayli inson xarakteri qaror topadi. Bolaning ruhiy xususiyati muayyan shart-sharoit, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida yuz beradigan rivojlanishning natijasi hamdir. Qulay sharoitning mavjudligi bolaning rivojlanishida samarali natijalarga olib keladi.

Rivojlanish jarayonining har bir o'tish davri quyidagicha uch qonuniy almashuvlar asosida kechadi:

1. Faoliyat olib borayotgan mazkur tipning o'z kuchini maksimal darajada sarflashi va eng yuqori darajaga ko'tarilishi.

2. Faoliyatning muayyan rivojlanish davri.

3. Faoliyatning to'yinishi va uning boshqa jihatlarining (ashyoviy va kommunikativ) faollashuvi.

Agar o'smirlar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi yetakchi faoliyatini aniqlab, unga ijtimoiy psixologik ta'sirlarning o'ziga xos ligidan kelimb chiqib quyidagilarni asoslashimiz mumkin.

1. Bolaning ilk, ya'ni, bir-uch yoshlaridagi faoliyatida ijtimoiy-madaniy maqsadlarga to'liq yo'naltirilmagan turli o'yinchoqlar va atrofdagi narsalar bilan ovunishi va kattalar bilan o'zaro sust munosabati.

2. Voqeyiy timsolli o'yinlar – o'yin faoliyatida ijtimoiy hodisalarni anglatuvchi va qatnashchilarning timsolli shakldagi xarakterli jihatlar.

3. O'qish-o'rganish faoliyati – o'qish va kichik maktab yoshi davrida (olti-etti va o'n-o'n bir yoshgacha) ustunlik qiluvchi o'zaro munosabatlarni qo'shib olib borish.

4. Bolalar rivojlanishida aniq ko'zga tashlanuvchi ikki davr mavjud. Ulardan birinchisi, ilk bolalik davridan maktabgacha bo'lgan davr bo'lib, "uch yillik inqiroz deb atalsa, ikkinchisi kichik maktab yoshidagi davr bo'lib, o'smirlikkacha bo'lgan "o'smirlik davrining inqirozi" deb nomlanadi.

Ushbu davrlar bolaning bir rivojlanish darajasidan ikkinchisiga o'tish davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar o'rtasida ta'lim va tarbiya ishlarini faol olib borish kerak. Aksariyat kishilarning ruhiy xususiyat va hulqiy odatlari ularning senzitiv rivojlanish davrida qaror topadi. Bolaga pedagogik tasir ko'rsatish senzitiv davrlarda o'z samarasini beradi. Bu o'quv-tarbiya jarayonlarining asosiy ruhiy-pedagogik shartidir. Tafakkur darajasiga ko'ra bola maktab yoshiga yetganda o'quv dasturlari talablarini bemalol bajara oladi. o'qitishga ruhiy jihatdan tayyorlash aynan shu bilan kifoyalanadiyu rivojlanish jarayonlarida his etish, diqqat, idrok, xotira, fikrlash, qobiliyat kabi shaxsiy xususiyatlar shakllanadi. Boshlang'ich maktab yoshida bolada o'zini tuta bilish, mehnat va o'qish layoqati, odamlar bilan munosabat qila olish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak.

Ruxiy jarayonlar va bola ruxiyatidagi o'zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari so'z boyligi xamda nutkning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruxiy psixologik rivojlanishga ta'luqlidir.

Texnik qobiliyatlari muammosi bilan M.G.Davletshin shug'ullangan.

Texnik qobiliyatlar tizimida muallif yordamchi, tayanch va yetakchi sifati ni ajratadi. Texnik qobiliyatlarning tayanch sifati - texnik kuzatuvchanlik bo'lib xisoblanadi. Yetakchi sifatga texnik tafakkur va texnik xayolni kiritish mumkin (texnikani tushunish, texnik masalalarni taxlil qila olish, fazoviy tasavvurlarni aniqligi, forma va masofani esda olib qolish, konstruktiv fantaziya). Yordamchi sifatga qo'l (manual) epchilligini kiritish mumkin.

Ma'lumki, turli kishilarni bir xil sharoitlarga va vaziyatlarga qo'yilganda ular turli muvaffaqiyatlarga erishadilar. Bunday paytlarda "ijodiy qobiliyatlar" tushunchasiga suyanamiz va muvaffaqiyat asosini ijodiy qobiliyat deb tushunamiz. Bu tushunchadan ba'zi odamlarni yangilikni boshqalardan ko'ra tezroq va yaxshiroq o'zlashtirganlarida ham foydalanamiz. Qobiliyat masalasidagi markaziy muammo uning irsiyligi, tug'maligidir. Platon inson qobiliyatlari tug'ma ekanligini aytgan va inson bilgan barcha narsa uning ideal bilimlar dunyosida bo'lgan paytidan xotiralar bo'lib xisoblanadi, deb taxmin qilgan. Mashhur tabiatshunos Charlz Darvinning amakivachchasi Frensis Galton o'zining birinchi kitobi «Talentning tug'maligi, uning qonuniyatlari va oqibatlarini» (1869), shuningdek, boshqa kitoblarida ta'kidlashicha, buyuklik va iste'dod avloddan avlodga beriladi, tashqi muxit omili esa bunda sezilarli rol o'ynamaydi.

Mashhur polyak pianinotchisi Igaatsiy Paderevskiy, aksincha, o'zining ajoyib pianinotchilik yutuqlarining siri nimada ekanligi xaqidagi savolga javob bera turib aytadi: «Bir foiz talant, to'qqiz foiz omad va 90 foiz mexnat».dir. Taniqli amerikalik kashfiyotchi Tomas Edisonning buyuklik - bu 99 foiz mexnat va bir foiz ilxom degan so'zlari mashxurdir. Amerikalik psixolog Artur Djensen ta'kidlashicha, xar bir kishi qattiq mexnat jarayonida o'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishi mumkin. Lekin qobiliyatlarni faqat ma'lum bir chegaragacha, tabiat imkon berguncha rivojlantirish imkoniyati bor. Kishi qattiq va fidokorona mexnat natijasida buyuk bo'lib qomaydi, buyuklik unga berilgan tabiat in'omi bo'lib hisoblanadi. Mashhur ingliz psixologi Gans Ayzenk o'zining ko'p yillik tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga keladi: - "Talent muvaffaqiyati tizimida genetik omillar 80 foizni tashkil etadi. Nutqiy qobiliyatlar, xotira, tasavvur, xisobga olish qobiliyatlari genetik asosga ega. 20 foizi ijtimoiy shart-sharoitlarga bogliq, ularga oiladagi, maktabdagi sharoit, omad va baxtli tasodiflar kiradi. Genetik va ijtimoiy omillarning bu munosabatini tajribaviy yo'l bilan tekshirib ko'rish mushkul."(1892) Galton yuqorida eslatilgan kitobida ijodning bir yoki boshqa turi bo'yicha qobiliyatlar avloddan-avlodga o'tgan ba'zi oilalarni misol keltiradi. Xususan, Bax avlodlarida musiqiy iqtidor ilk bor 1550 yilda kuzatilgan va besh avloddan so'nggina I.S.Bax dahosida bir muncha kuchliroq namoyon bo'ldi. Baxlar oilasida 60 ga yaqin musiqachi bo'lgan; ularning 20 ga yaqini mashhur deb tan olingan. Motsart ajdodlari orasida 5 nafar, Gaydnada esa ikkita musiqachi bo'lgan. O'qituvchi maktab o'smirlarni kuzatib, ulardan bir xillari o'qishga qobiliyatli, boshqalari kamroq qobiliyatli bo'ladi, deb hisoblar ekan, bu gapda jon bor. Shunday bo'ladiki, ayrim bolalarda yoshligidanoq ijodiy qobiliyatlarning kurtaklari sezilsa, ayrimlarini o'sirlik yoshida tashki muxit ta'sirida namoyon bo'ladi. Ya'ni kichik maktab yoshidayoq matematikaga qobiliyatli bo'ladi-yu, lekin o'zining og'zaki va yozma nutqini yaxshi ifodalay olmaydi yoki o'smirlik yoshi davrida tillarga, adabiyotga, umuman gumanitar fanlarga bo'lgan qobiliyatini namoyon etadi, biroq matematika, fizika, texnikani o'rganish unga qiyinlik qiladi. Qobiliyatlar deb shunday pisixik sifatlariga aytiladiki, kishi ular yordamida bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab oladi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tovlanishidagi nozik farqlar, predmetlarning aniq ko'rinishi, proporsional nisbatlarini tushunish (rassomlar ishida), absolyut eshitish (musika bilan shug'ullanishda), kuzatuvchanlik (juda ko'p faoliyat turlarida) va hakazolar ayon bo'ladi. Ayrim qobiliyatlar xotiraning yaxshi ishlashi bilan bog'liqdir (masalan, materialni tez va mustahkam o'zlashtirib oladi, uni oson va aniq takrorlash qobiliyati). Kishining fikrlash faoliyati (materialni tushunish, murakkab masalalarni hal qilish, fikrining chuqurligi, tanqidiylik, mulohazakorlikda) qobiliyatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

1.2 O'smirlik yoshining ijtimoiy psixologik xususiyatlari

O'smirlarni xali to'la katta deb xisoblab bo'lmaydi. Chunki ularning shaxsiy xususiyatlari xali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida berayotgan baxolarida, xayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'smirlar maktabni tugatish vaqtiga kelib xam kasb tanlashga nisbatan ma'suliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'smirning axloqan o'z –o'zini anglashi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intelekti yaxshi rivojlangan o'smirlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushina oladilar va ularni muxokama eta oladilar. o'smirlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai –bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar. O'smir yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq kattta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy – ommabop badiiy, publitsistik adabiyotlar, sanoat asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib xisoblanadi. Bugungi o'smirlarga xayotga nisbatan xushyor, aqliy –amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ulart xaqqoniy bo'lish tushunchasiga xam real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan o'rgan yillardek «xaqqoniylik bu xammaga bir xil emas, balki xar kimdan imkoniyatiga qarab va xammaga ishiga yoki inson manfaatalriga qo'shgan xissasiga qarab belgilanadi» deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib juda ko'p o'smirlar axloqiy jixatdan shakillangan va ma'lum axloq normalari qatoylashgan xususiyatlarga ega bo'ladilar. O'smirlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy , madaniy, dinniy va boshqa soxalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'smirlarni yaxshilik va yomonlik, xaqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Xozirgi davr o'siprinlari xar bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabat xos bo'lmay, balki xayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvi yoshlaridir.

O'smirlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o'z xatti-xarakatlarini yo'lga solishiga intiladilar. Bu esa, avvalo o'smiring o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Birinchidan bolada tashqi olamdagi predmet tasiridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi. Ikkinchidan o'zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi. Uchinchidan o'zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi. To'rtinchidan ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baxo berishning ma'lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarni barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog'lagandir. Lekin bularni xammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning «men»ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va x.o. o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baxo berish o'smirlik yoshida, borgan sari ko'proq axamiyat kasb eta boshlaydi.

o'smirlar xar joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan vaqtidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi semizlik, xusn yuzdagi xusinbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan ug'il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi–bu o'pirinlikning o'zini anglashi ancha muxim komponent bo'lib xisoblanadi.

O'smirlikda o'z shaxsiy xislatlariga baxo berish kuchayadi. o'smir borgan sari o'z qimmatini, nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benixoya bilgisi keladi. O'ziga baxo berish 2 usulda bo'ladi. 1. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baxolaydi. Masalan: Bola qiyin vaziyatda o'zini yukotmaydi yoki yosh bolani yongindan qutkazdi -"men qo'rqqoq emasman" deydi. Ma'lum qiyin topshiriqni bajardi. «Men kobiliyatliman»-deydi. Axloqqa oid bunday xatti –xarakatlar, o'smirning o'z katoiyiligini sinashi xamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, yaoni o'zi xaqidagi boshqa ishlarni fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan "mardlik" deb maoqullangan xatti-xarakatni o'qituvchi

"qalbaki o'rtoqlik" deb aytadi. Bunda bolalar o'z xatti –xarakatlari to'g'sida uylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy "men" obrazi, juda murakkabdir. Xatto kattalarning o'zini anglashi qarama qarshiliklardan xoli emas. o'smir larda yanada kuchliroq bo'ladi. Ba'zi o'smirlar o'zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu xolat qizlarda ertaroq va ko'proq uchraydi. Bu xolat shunchaki o'sishni bildirib qolmasdan, balki shaxsda moxiyat jixatidan tubdan boshqacha tarzda o'z shaxsiyatining ma'naviy –ruxiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi maqsad va vazifalarini anglash, ularni oqilona baxolash zaruratini aks ettiradi. Undagi o'z –o'zini anglash turmush, yashash, o'qish, mexnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo'ladi. O'quv muassasa mikromuxitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muamala ko'lamining kengayishi o'ziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, xissiy xususiyatlarini oqilona baxolash, qo'yilayotgan talablarga javob berish tariqasida yondashish o'z-o'zini anglashni jadallashtiradi. O'smir o'quvchilarining o'z-o'zini anglashga aloqador o'ziga xos xususiyatlari mavjud ular, dastavval o'zlarining kuchli va zaif jixatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baxolash imkoniyatiga ega bo'ladilar. o'smir o'quvchining o'smirlik davridagi boladan o'zgacharoq yana bir xususiyati–bu murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissini anglash, o'z qadr-qimmatini eozozlash, sezish va faxmlashga kuproq moyilligidir. o'smir o'quvchida o'z-o'zini anglash negizida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi. Natijada unda o'z-o'zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko'rish extiyoji vujudga keladi. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'smir o'quvchisi ruxiyatidagi mavjud nuqsonlarga barxam berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga yetgan kishilarga xos ko'p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mexnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlarini va xislatlarini xosil qilishga xarakat qiladilar; o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma'naviy–ruxiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O'smir o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy tasiri doirasida bo'lmog'i shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashtirish jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mexnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri izga solib yuborish uchun uyg'un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida tasir o'tkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro baxolash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan ba'zi bir yaramas yurish-turish ko'rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning tasiridan yigit va qizlarning asrash, yot tashviqot moxiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir.

O'smirlarda balog'atga yetganlik tuyg'usi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg'usiga o'sib o'tadi. Bu narsa ularning aloxida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, murakkab tasviriy sanoatga, musiqaga, kasb-xunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga xarakat qiladilar. O'quv va mexnat jamoalari tasirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, xalollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi, xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barxam topishi tezlashadi.

O'smir lar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarini roli aloxida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlik, mas'ouliyatlik, o'z xarakatlarini tanqidiy baxolash singari fazilatlarini barqaror xususiyat kasb etib boradi. O'smir yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon buladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o'zini nimaga xurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Do'st va dushmanlari kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga xarakat qiladi. Ma'lumki o'smirlarning xamma savollari anglangan bo'lmaydi. Ba'zan o'smirlar o'zlaridan xech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga xaddan tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bulardan ko'rinib turibdiki, o'smirlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu

esa o'smirlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir. O'z-o'zini xurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'smirlikdagi eng muxim xislatlaridan biri o'z-o'zini xurmatlash, o'z-o'ziga baxo berish xamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'smirlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini xosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: O'g'il bolalar – qaxramonlik, yaxshi ota, o'qituvchi, vrach yoki badiiy asar xamda kinofilpmidagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar, qizlarimiz mexnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va x.o. O'zaro munosabat va emotsional xayot o'z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'smirning o'zi xal qila olmaydi. Bu masalani o'smir ning ota-onasi, o'z tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashda xal qila oladi. Xozirgi zamon psixologiyasida shu narsa ko'zga tashlandi. Ko'pchilik o'smirlar bo'sh vaqtlarni bironta joyda o'tqazishni afzal ko'radilar. Ayniqsa shaxar bolalari bo'sh vaqtlarini maktab va uydan tashqari joylarda o'tkazishni afzal ko'radilar. Qishloq bolalari bo'sh vaqtlarini madaniy dam olishga qaratadi. Ammo shaxar bolalari bo'sh vaqtlarini ko'proq kattalar bilan emas, balki o'z tengqurlari bilan o'tkazishni afzal ko'radilar. Masalan: Ayrim o'smirlar ota-onalari salgina extiyojsizlik qiladimi xafa bo'lib, qovog'ini osadilar, yuz o'girib o'tiradilar, gap qaytaradilar. Natijada ota-ona o'rtasiga sovuqchilik tushadi. Munosabatlar bular o'rtasida murakkablashadi. Uydan chiqib ketadilar. Lekin siyosiy qarashlar, dunyoqarashlar, kasb tanlash ancha chuqur muammolarga kelganimizda shuni aytish mumkinki, ota-onalar obro'si odatdagidek bolalarga o'z tengqurlariga nisbatan ko'proq tasir etadi. Gruppa xayot – erta o'smirlik bu faqatgina o'zini analiz qilish yoshgina bo'lib qolmay, shu bilan birga eng yosh "jamoat" xamdir. Masalan: Ba'zi o'smirlar sinfda masxarabozlik qilib, bolalarni jig'iga tegadilar. Bunday paytda o'smirlarda o'zing gruppadagi xolatiga qanoatsizlik paydo bo'ladi. Katta yoshdagi bolalar xayoti murakkablasha boradi. Bunda birinchidan uyushgan maktab kolektivlari, ikkinchidan maktabdan tashqari kollektivlar, sport jamiyati klublar, tugaraklar, uchinchidan formal bo'lmagan stixiyali gruppa va kompaniyalar. Bular shaxslararo aloqa qilish protsessida vujudga keladi

1.3 Komil inson muammosi sharq mutafakkirlari qrashlarida ifodalanishi.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonunyatlarini izchil, atroflicha, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti to'g'risida qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tamonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi deb ta'kidlanadi.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirada yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirining barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan o'qitish tabiatga uyg'unligini uqtiradi.

Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, jang va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi undaga nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Hojibning bosh masalalarida biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qudadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhtaful ahror» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan. Alisher Navoiyning «Xazoyinul ma'niy», «Mahbubul qulub» va boshqa asarlarida yetuk barkamol insonning axloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va kobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolat qaror topish uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida otanonaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr mulohazalari alohida o'rin egallaydi. Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmis iroda, qa'tiyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogahiyning yoshlar tarbiyasiga, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

Har tomonlama yetuk shakllangan, komil inson g'oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Milliy model nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o'z sohasi bo'yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy – tarixiy psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu darajadagi shaxsning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yuksak aql-zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik;
- xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o'z imkoniyatlarini oqilona baholash;

- ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining yuksak boso‘ichi bo‘lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo‘yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egalik bilan xarakterlanadi;
- uzluksiz ravishda yangiliklarga intiluvchanlik, ijodiy yechimlarni amalga oshirishga qobillik;
- o‘z iqtidori va ijodiy salohiyatini amaliy ifodalanishini ta‘minlash;
- har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish;
- har tomonlama rivojlangan shaxsning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb ataladi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his-tuyg‘ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat qoidalariga rioya qilish, axloqiy yetuklik, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy ong ko‘rinishlariga oqilona yondoshish.

Komil inson shaxsining umum insoniy qadriyatlari yoxud ijobiy hislatlari, o‘zbek xarakteridagi ijobiy hislatlarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi qanday tuziladi?

Prof. B.Ziyomuxammadovning¹ fikriga ko‘ra to‘g‘ri tarbiyaga molik umuminsoniy ijodiy hislatlarni va fazilatlarini quyidagicha deb tasavvur etish mumkin:

Birinchidan, ishbilarmonlik hislatlar va fazilatlar: ishchanlik, tirishqoqlik, serhafsasalik, serharakatlik, mas‘uliyatlilik, halollik, insofilik, malakalilik, bekami ko‘stlik, sifatlilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, botartiblilik, tadbirkorlilik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta‘masizlik va boshqalar.

Ikkinchidan, zukkolik, idroklilik hislatlar va fazilatlar: zehnlilik, boma‘nilik, xotirjamlik, sog‘lom fikrlilik, donishmandlik, asoslilik, farosatlilik, sezgirlik, zakovat, topqirlik, lo‘ndalik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik va boshqalar.

Uchinchidan, sobitlik hislatlar va fazilatlar: faollik, qat‘iyatlilik, tezkorlik, kuydipishdillik, jo‘shqinlik, zardalilik, sabotlilik, bir so‘zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, erksevarlik, jiddiylik, nafsini tiyishlik, o‘zini yo‘qotmaslik, sovuqqonlik, o‘ziga talabchanlik, kamsuqumlik, odamoxunlik, o‘zini iroda eta bilish va boshqalar.

To‘rtinchidan, shaxsning umumiy hislatlar va fazilatlar: yoqimlik, ko‘rkamlik, jozibadorlik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug‘sifatlik, o‘ziga hoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Beshinchidan, shaxsning axloqiy hislatlar va fazilatlar: insonparvarlik, do‘stlik, g‘amxo‘rlik, jonkuyarlik, samimiylik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlik, ochiq yuzlik, kechirimlilik, mehmondo‘stlik, xushaxloqlik, hajmihatlik va boshqalar.

Oltinchidan, ehtiroslilik hislatlar va fazilatlar: nekbinlilik, ko‘tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, hazinlik, ishonuvchanlik, hayolchanlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, mushfiqlik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, uyatchanlik, hijolatlilik, iffatlilik va boshqalar.

¹ Б.Зиёмухаммадов .Комилликка элтувчи китоб.“Турон-иқбол нашрети”, Тошкент, 2006. 189-262бетлар



maqsad qo'yib, uning o'z ustida ishlashni, tushirish, izlanishi tanlangan vosita va usullarining qo'llanishi natijasini ko'ra bilish kabi tarbiyachilik san'atini o'rgatishga qaratiladi.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash borasida respublikamiz pedagogika fanining maqsadlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- barkamol insonni voyaga yetkazish muammolarini majmuaviy tadqiq etish;
- Respublikamizda ta'lim-tarbiya samaradorligini uzluksiz oshirib borish va jahon talablari darajasida taraqqiy etishga erishish;
- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;
- tarbiyashunoslik asoslarini ilg'or tajribalar asosida boyitib borish va uning yangi shakllarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish;
- bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarni barkamol avlodni shakllantirish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal qilish.

Ushbu maqsadlarga erishish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi taqozo etiladi:

- komil inson tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;
- pedagogika - tarbiyashunoslikdagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va pedagogik texnologiya qonunlariga amal qilish;
- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini ta'lim muassasalari amaliy faoliyati bilan bog'lab, bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;
- Sharq va g'arbda xalq yaratgan xalq og'zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, komil inson tarbiyalash jarayonini o'rganish.

Bolalar ijodini o'rganish metodi – maktab o'quvchilari ijodini hamda ularning turli tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Ta'lim qonunida va milliy dasturida pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi – pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rganish mustaqil o'zbekistonda fan madaniyat, ta'lim-tarbiyani taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Anketalar metodi – o'quvchilardan so'rash usuli bo'lib, u o'quvchilar jamoasining ma'lumotlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun va kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus formada ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollari bo'lib, ularni javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqmog'i lozim.

Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari – hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishi fani va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika

vositalarini, hisoblash matematikasi va kibernetika usullarini maktab ishida va pedagogikada qo'llanilishini talab qiladi. Pedagogika kibernetika o'quv protsessini o'qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida formasi sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida katta farq bor. Pedagogik tadqiqotlardan kino ovoz texnikasi, foto, televidenie singari texnika vositalaridan ham keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi. Bolalar uchun qo'shimcha rag'batlantirish omillarini hosil qiladi. Bular o'qituvchilar mehnatini ma'lum maqsadda yengillashtiradi. Ko'rsatilgan vositalarning xar biri bolalarning yoshini, o'quv fani va pedagogik jarayon mukammallashtiradi.

II BOBYoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirishda qobiliyat va iste'dodning o'rni

2.1 O'smirlarning intellektual salohiyatini rivojlanishida qobiliyat va istedadning o'rni.

O'smirlarning intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari va korxona, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Iste'dod tushunchasining asosiy mazmuni "qobiliyat" degan tushunchani ham anglatadi. Bizningcha, amaliyotda qo'llaniladigan «qobiliyat» tushunchasi uchta asosiy qismga ega.

Birinchidan, qobiliyat psixologik o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, bir odamni boshqasidan farqlaydigan qobiliyat tushuniladi, barcha odamlar xos bo'lgan qobiliyat haqida gap ketganda hech kim bu iborani ishlatmaydi. "Qobiliyat" so'zi marksizm-leninizm asoschilari bashora qilganidek bu - «Har kim qobiliyatiga yarasha» degan shiorda qo'llanilgan, xolos.

Ikkinchidan, qobiliyat iborasi umuman olganda odamdagi o'ziga xos har qanday turli xususiyatlarni anglatmay, balki faqat turli faoliyatlarni bajarishda erishgan muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ba'zi odamlar shubhasiz o'ziga xos fazilatlariga ega: jizzakilik, lanjlik, yalqovlik kabi hususiyatlarni odatda qobiliyat deb bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyatda ham har doim muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Uchinchidan, «qobiliyat» tushunchasi ayrim shaxslarda, ya'ni uning bilimi yoki bilarmonligiga qarab belgilanmaydi. Ko'pincha, pedagog o'quvchining faoliyatidan uncha qoniqmasada, lekin shunga qaramay yaxshi o'zlashtirilmayotgan bola boshqa o'rtoqlaridan ortda qolmay fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilishi bilan o'qituvchini xursand qiladi. Pedagog o'zining noroziligini o'quvchi bilan yetarlicha shug'ullanmasligini asoslab: o'quvchining «qobiliyatiga e'tibor berib», o'quvchi bilan ko'proq shug'ullansa bilimni yaxshi o'zlashtira olish qobiliyati bor degan xulosa keladi.

Har qanday o'smirlarning faoliyati va bilimdonligi asosida tashkiliy ishga nomzodlikka ko'rsatib va bu ko'rsatishni «yaxshi tashkiliy qobiliyat» bilan asoslashadi, albatta, «tashkiliy qobiliyat»ga ega bo'lish bu – «tashkiliy mahorat va bilarmonlik»ga ega degani emas ekanligi haqida o'ylashmaydi. Balki aksincha bo'lib chiqishi ham mumkin: hali tajribaga ega bo'lmagan yosh xodimni «tashkiliy qobiliyati»ni asoslab nomzodlikka ko'rsatishganda balki u hali shu davrda yetarli malaka va tajribaga ega bo'lmazligi mumkin-u, lekin o'zining bilimdonlik qobiliyati tufayli tez orada malaka va tajriba orttirib, muvaffaqiyatga erishishi ham mumkin. Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, hayotda qobiliyat tushunchasi ostida odatda mavjud bo'lgan bilim, mahorat va malakadan iborat bo'lgan, lekin, bu bilim va mahoratlarga tez va oson erishishni anglatadigan o'ziga xos hususiyatlar ko'zda tutiladi. Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki, qobiliyatni biz «har bir insonning o'ziga xos psixologik hususiyatlari» deb aniqladik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo-fiziologik hususiyatlar, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko'p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba'zi insonlarda tabiiy hususiyat, ya'ni iste'dod ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ba'zida «haqiqiy», «tabiiy», «tabiatdan berilgan» va shunga o'xshash so'zlar bilan aytilganda - «tabiiy» tushunchasi, - qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog'liq. Ko'p hollarda biz tabiiylikni iste'dod rivoji asosida yotgan qobiliyatni tushunamiz. Balki kimdir biror joyda amaliy so'z ishlatishda, u yoki boshqa biror narsani - tabiiy xususiyatni qobiliyat deb ta'kidlashi mumkindir. Go'dak tug'ilgan vaqtda mavjud bo'lgan «garmonik his» yoki «musiqaga bo'lgan tuyg'u» haqida o'ylash dargumon. Ehtimol, har qanday idrokli inson, tug'ilgan daqiqadan boshlab, muzikaga bo'lgan tuyg'u yoki o'zaro his-tuyg'uning rivoji asosida faqat iste'dod

nishonalari, qiziqish yoki shunga o'xshash tuyg'u mavjud deb o'ylash mumkin. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, tabiiy iste'dod nishonalari haqida gap ketganda, biz hali meros bo'lib qolgan iste'dod nishonalari haqida so'zlaganimiz yo'q. Bu ikki tushunchani bir-biriga tenglashtirishdagi yakuniy xulosa xatto haddan tashqari keng tarqalgan. «Tabiiy» tushunchasi bilan «meros bo'lib qolgan» tushunchasi bir xil ma'noni anglatishi tahmin qilinishi, albatta, noto'g'ri. Chunki bola tug'ilishdan oldin ona qornida rivojlanadi. «Meros» va «meros bo'lib qolgan» tushunchalari, psixologik adabiyotda, faqat ko'rsatilgan b ajdodlari belgisi meros bo'lib qolgan deb o'ylasakda, o'shanda ham, tarbiya va o'qitishning to'g'ri natijasi emasligini ko'rsatmoqchi bo'lishsa ham, yoki, ba'zi organizmning fiziologik yoki biologik hususiyatlari bu belgi bilan jamlanishini tahmin qilishga haqiqiy asos bo'ladi. «Meros bo'lib qolgan» tushunchasi, shunday qilib, nafaqat «tabiiy» so'zini, balki «biologik», «fiziologik» va shunga o'xshash so'zlarning sinonimidir.

Bunday turdagi terminologiyaning to'g'ri va aniq emasligi asosiy ma'noni bildiradi. «Meros bo'lib qolgan» termini daliliy aniq tushunchasiga ega, shuning uchun ham bu termini katta ehtiyotkorlik bilan, faqat aynan shunday tushunchani keltirish mumkin bo'lgan jiddiy asoslar bor joyda qo'llaniladi. Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo'ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek, hamda qobiliyat o'zining to'la rivojiga yetib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak. Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshishini nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo'li bilan biz ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo'llaniladi degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go'dakda absolyut eshitish qobiliyati tovush balandligini bilish birinchi bor dunyoga kelishidan oldin mavjud emas. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste'dod nishonasi mavjud bo'lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidir. Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham to'g'ri o'tmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning har xil bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin, bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan aslo paydo bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, qobiliyat deb faqatgina u yoki boshqa faoliyatning bajarilishida muvaffaqiyatga erishishdan iborat bo'lishdangina emas, balki o'ziga xos psixologik qobiliyatni tan olish kerak. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri qandaydir faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilish imkonini aniqlaydigan, o'zgacha bo'lgan qobiliyat emas, balki faqat bu shaxsda mavjud bo'lgan qobiliyatning o'ziga xos birligidir.

Qobiliyat - odam psixikasining eng muhim hususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkonini oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilish imkonini aslo yo'q emas. Bir shaxsda qobiliyatning yetishmasligi keng rivojlangan boshqa bir shaxs bilan o'rtalarida juda katta chegara qoplangan bo'lishi mumkin.

Aynan chegaraning qoplashning imkoniyati har hil: masalan, musiqiy iste'dod va musiqaga yoki biror bir shunga o'xshash sohaga bo'lgan qobiliyat bilan bog'langan faoliyat iste'dod bo'lmasa har qanday urinishlar oqibatida omadsizlikka olib kelishi muqarrar.

Bu fikrni tasdiqlab berishimiz uchun juda oddiy bir misol keltirib beramiz. O'ziga xos musiqaga qobiliyati bo'lib, bu qobiliyatga ega shaxsning alohida bo'lgan ovozinin balandligini ma'lum boshqa bir ovoz bilan tenglashtirmay to'liq eshitish bo'ladi. Absolyut eshitishda «tabiiy qobiliyatning» aniq ko'rinib turgan misolni ko'rishga jiddiy asoslar, ya'ni qobiliyat asosida yotgan tabiiy iste'dod nishonalari borligidadir. Lekin, absolyut eshitishga ega bo'lmaganlarda alohida bo'lgan ovozlarning balandligini bilishini ishlab chiqarsa bo'ladi. Bu, absolyut eshitish bularda yaratiladi degani, lekin, absolyut eshitishning yo'qligi, boshqa qobiliyatlarga tayangan holda – nisbiy eshitish, tembr eshitish va shunga o'xshashlar, boshqa

holatlarda absolyut eshitish asosida amalga oshadigan mahoratni ishlab chiqarish deganidir. Nomlanayotgan "absolyutlakab" eshitishda butunlay turlicha buladi, birok amaliy natijalar ba'zi bir xollarda butunlay bir xil bulishi ham mumkin. Tovushlar blandligini bilishning psixik mexanizmlari haqiqiy absolyut eshitishda va maxsus ishlab chikilgan.

Keyin, alohida bo'lgan qobiliyat nafaqat birga va bir- biriga bog'liq bo'lmasdan mavjudligini esda tutish kerak. Har bir qobiliyat boshqa qobiliyatlarning borligi va toifasining rivojlanishiga bog'liq holda o'zgaradi, o'zga sifatli xarakterga ega bo'ladi. Bu mulohazalardan kelib chiqib, alohida bo'lgan qobiliyatlardan bu insonning u yoki bu boshqa faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoni haqidagi savolga to'g'ridan-to'g'ri o'tolmaymiz. Bu o'tish faqat boshqa, yanada sintetik tushuncha orqali amalga oshishi mumkin. Bu shunday tushuncha bo'lib, qobiliyatlarning o'ziga xos sifatli birligi bo'lib tushuniladigan, u yoki bu boshqa faoliyatning bajarilishida katta yoki kichik muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga bog'liq «iste'dod» hisoblanadi. «Iste'dod» va «qobiliyat» o'ziga xos tushunchalarga ega, ulardagi inson hususiyatlari har qanday amaliy faoliyat taqdim etayotgan talablar nuqtai nazaridan ko'riladi. Shuning uchun iste'dod haqida ham umuman gapirish mumkin. Iste'dod shaxsning faqatgina nimagadir, qandaydir faoliyatiga nisbatan aytiladi. Bu «umumiy iste'dod» haqidagi savolni ko'rib chiqilishida hususan muhim ahamiyatga ega. Aynan "iqtidorlik" tushunchasining ichida zaruriy shart sifatida muayyan amaliy faoliyatdan iborat bo'lgan o'zaro bog'liqlik ushbu tushunchaning tarixiy xarakterini belgilab beradi. «Iste'dod» tushunchasi biologik xususiyat deb qaralganda o'z mazmunini yo'qotadi. Iste'dod - anglashimizcha, bu har qanday u yoki bu boshqa faoliyat turlariga kiritilishi va shubhasiz har bir muayyan faoliyatning «muvaffaqiyatli» bajarilishiga jiddiy ravishda bog'liqligidir.

Iqtidorlikning u yoki bu boshqa maxsus ko'rinishlardagi tushunchalarning mazmuni xam ahamiyatli tarzda o'zgarishga yuz tutadi, bu albatta tegishli faoliyatning ushbu davrda va ushbu jamiyat formatsiyasining "muvaffaqiyatli" bajarilish kriteriyalarining qanaqaligiga bog'liq, albatta. «Musiqiy iste'dod» tushunchasi albatta, biz uchun jiddiy ravishda boshqa mazmunga ega, bir ovozli musiqadan boshqa musiqani bilmaydigan xalqlar ham bo'lishi mumkin. Musiqaning tarixiy rivojlanishi musiqiy iste'dodning o'zgarishiga ham olib keladi. Shunday qilib, «iste'dod» tushunchasi aniq, tarixiy rivojlanayotgan ijtimoiy mehnat amaliyoti uslubi bilan o'zaro bog'lanmasa xech qanday ahamiyatga ega emas. Yana bir muhim tomonini belgilab qo'yamiz. Iste'doddan faoliyat muvaffaqiyatli bajarilishi emas, balki, faqat bu muvaffaqiyatga erishish imkoniga bog'liq. Savolning psixologik tomondan chegaralangan taqdirda ham, biz aytishimiz kerakki, har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun nafaqat iste'dod, ya'ni qobiliyatning muvofiq birligi, balki zarur mahorat va bilarmonlik ham talab qilinadi.

Quyidagi ikkita holat o'rtasida katta farq mavjud "O'smir o'zining iqtidorligi bilan bunday faoliyat turlarini muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatiga ega" va " O'smir o'zining iqtidorligi bilan bunday faoliyat turlariga moslashgan"ligidir. Iqtidorlik faoliyat tanlovini aniqlab beruvchi yagona faktor hisoblanmaydi, shuningdek u faoliyatning bajarilish muvaffakiyatini aniqlab beruvchi yagona faktor bo'lib ham hisoblanmaydi.

Maxsus qobiliyat (lotinchadan specialis - o'zgacha) – shaxsning ma'lum turdagi faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilgan imkonlari bo'lgan psixologik holatning o'ziga xosligi (musiqiy, sahnaga oid, adabiy) va shu kabilar. Ularning rivoji iste'dodga munosib bo'lib, masalan, musiqiy xotira - qobiliyatga tayanadi.

Voyaga yetish ya'ni yoshga oid shakllanish davri davomida maxsus qobiliyatning rivojlanishining eng qulay davri hisoblanadi. Katta ahamiyatga ega bo'lgan iste'dod anatomik - fiziologik asosda yetarli darajada farqlanishi mumkin bo'lgan maxsus qobiliyatning tuzilishi hisoblanadi. Shunday qilib, maxsus qobiliyat ma'lum darajasi (matematik, badiiy va h.k.) har qanday sog'lom bolada shakllangan bo'ladi. Shu bilan, maxsus tashkil qilingan o'qitish sharoitida bolaning qobiliyatini yo'naltirish rivojlanishida aniq xulosalar mavjud.

Biologik rivojlanishning ma'lum darajadagi bosqichda ro'yobga chiqqan psixikani o'zi ularning mavjudlik sharoitlariga organizmlarning qiyinchilik bilan moslashishini ta'minlab uning omillaridan biri sifatida bo'lib turadi. Psixika odamga o'tib yangi sifatli ijtimoiy-tarixiy qonuniylikga bog'langan tuzilmaga ega bo'ladi. Faoliyat darajasida muntazamlilikni saqlashda yetakchilik qilib, psixika faolligini namoyon bo'lishining oliy asosi bo'lib hizmat qiladigan

shaxs tuziladi. Qobiliyat deb biz o'ziga xos psixologik xususiyatni ataymiz, tug'ma xususiyatlar esa faqat anatomo-fiziologik bo'lishi mumkin. Shuning uchun ilmiy tahlilda tug'ma qobiliyat haqida so'zlash mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat iste'dod, ya'ni anatomo-fiziologik rivojlanish asosida yotgan o'ziga xos xususiyatida, qobiliyatlarning o'zi esa har doim rivojlanish natijasi o'quv va tarbiya jarayonida birinchi navbatda amalga oshadi.

Masalan, inson asliga muvofiq bo'lgan ma'no so'zida «tabiatdan berilgan» qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin emas, balki uning faqat «tabiatdan berilgan» rivojiga bo'lgan nishonalarga ega bo'lishi mumkin. «Tabiiy qobiliyat» haqida gapirib, biz har doim qobiliyatlarning o'z tabiiyligini emas, balki ularning nishonalarini rivojlanish asosida bo'lganini nazarda tutishimiz kerak.

Qobiliyat faqat harakatda, rivojlanishda mavjud. Bu rivojlanish faqat u yoki boshqa aniq faoliyat jarayonida amalga oshadi. Bu insonning aniq faoliyatisiz qobiliyat mavjud emasligini ko'rsatadi.

Har qanday qobiliyatni zaruriyat bilan talab qiladigan, usiz amalga oshmaydigan faoliyat jarayonida rivojlanib paydo bo'ladi. Bolaning oldiga uning yordamisiz yechiladigan masalalar qo'yib qandaydir ma'lum qobiliyatni hech qachon tarbiyalab bo'lmaydi. Masalan, o'smirlar o'z qobiliyatlarini shart sharoitlarga ko'ra rivojlantirilishiva aksincha bo'lishi xam mumkin Yaxshi qobiliyatlarning ko'rsatkichlardan biri deb erta namoyon bo'lgan qobiliyatni tan olinadi, biroq, lekin erta namoyon bo'lgan qobiliyatning yo'qligi qaysidir me'yorda zaiflik ko'rsatkichi yoki ayniqsa munosib qobiliyatni yo'q deb hisoblash mumkin emas.

Birinchi, erta namoyon bo'lgan qobiliyatlar imkoni nafaqat o'smirning iste'dodiga bog'liq, balki uning hayotidagi birinchi yillari o'tgan tarbiyaviy sharoitga ham bog'liqdir. Juda erta namoyon bo'lgan har qanday qobiliyatlar kuzatilayotgan hamma holatlarda ham, bu qobiliyatning rivojlanishida ota-ona yoki boshqa kimsalarning o'rni yoki to'g'ri (tartibli bo'lmasa xam) tashvishlari, yoki, hech bo'lmaganda, bolani mana shu qobiliyat rivojlanishi mumkin bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'naltiradigan sharoitning yaratib berishga ham bog'liq. mavjud. Bu sharoitlarning yo'qligida qobiliyat namoyon bo'la olmaydi.

Ikkinchidan, ko'p bolalarda qobiliyat ilk bor faqat doimiy shug'ullanish natijasida rivojlana boshlaydi va bu aslo qobiliyatning zaifligini ko'rsatmaydi, aksincha, ba'zi bolalarda mazkur soha bo'yicha mislsiz iste'dodga ega ekanligi keyinroq namoyon bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'smir qobiliyatini har qanday holatda tarbiyalab o'stirishda, avval pedagogik-psixologik xulosa chiqarmasdan turib, salbiy xulosaga kelish mumkin emas.

Har bir o'smirlarga, uning shaxs xususiyatidan kelib chiqib, uning tarbiyaviy jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qidirib, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda – jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tarbiyaning hech bir uslubiyotini – tarbiyalanuvchilarga hech qachon bir xilda qo'llab bo'lmaydi. Ya'ni har bir o'smirlarga individual yondoshish kerak.

O'smirlarga yo'naltirilgan tarbiya tizimi o'qituvchidan tarbiya uslubiyotlariga alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to'liq o'rganishni, jarayonga ijodiy muhitni olib kirishni taqozo etadi. Bunga asosiy sabab:

- tarbiya jarayonida to'liq muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlik tahdidining mavjudligi;

- o'smir to'qnashadigan va ba'zan ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri – bu fikrining o'ylaganidek ro'yobga chiqmasligini anglashi;

- o'smirlar ko'pincha o'zining dunyoqarashi, tasavvurining qanday darajada kengligidan kelib chiqib, fikrlaydi hamda bu fikrlashni mavjudlikning ijobiy, yoki salbiy holatlari bilan bog'lab tahlil qila olmasligidir.

O'smirning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va tarbiyaviy jarayonini shakllantirishda quyidagi holatlar e'tiborga olinishi maqsadka muvofikdir.:

1. Tarbiya jarayoni maksimal darajada texnokratik bo'lishi kerak. Buning uchun esa psixologik hamda pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kerak;

2. Tarbiyaviy jarayonga singdirilishi ko'zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim;

3. Tarbiyaviy jarayonning dastlabki holatda ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kerak.

O'smir shaxsining shakllanish jarayoniga – jamiyatda qabul qilingan ahloq normalari, hulq normalari, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni singdirish texnologiyalarini yaratish ko'pgina jihatdan yakuniy natijani ta'minlashga xizmat qiladi.

1. Boshlang'ich jamoalashuv yoki moslashuv bosqichi. Bunda o'smir tomonidan ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi, moslashtiriladi va qabul qilinadi.

2. Individuallashuv bosqichi. Bunda o'smirda o'zini boshqalardan ajratish istagi, jamoat xulq normalariga nisbatan ijobiy hamda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi.

3. Integratsion bosqich. O'smir jamiyatda o'zi o'rnini topish, jamiyat hayotiga kirishish, atrofdagilarga ijobiy tomondan tanilish, faoliyatda o'zini ijobiy tarafdan ko'rsatish harakatiga tushadi, ya'ni shaxs sifatida o'zini tanitish istagi birinchi o'ringa chiqadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, agar shaxsning harakatlari biror ijtimoiy guruh yoki jamiyat tomonidan qabul qilinsa, integratsion bosqich muvoffaqqiyatli o'tadi. Mabodo buning aksi bo'lsa, quyidagi holatlar kelib chiqadi:

- o'smirda norozichilik kayfiyati paydo bo'lib, tushkunlik holatiga tushadi;
- o'zi harakatlarini tahlil qilib, o'zini o'zgartirishga harakat qiladi;
- o'smir o'zida tashkilotchilik, yetakchilik, o'zini ko'rsatish kabi hislatlarni jilovlab, mavjud muhitga moslashish harakatiga tushadi.

4. Ijtimoiy faoliyat bosqichi. Bu bosqich inson balog'atga yetgan davrdan boshlab, hayotining ohirigacha davom etadi. Shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni mehnat bosqichida tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanib boradi. Bunda mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega.

Yuqorida tarbiyaviy jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni qarab chiqdik. Tabiiyki, tarbiya jarayoniga bunday texnologik yondoshuv o'ziga xos savollarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jumladan, texnologik asosda uzluksiz ta'lim tizimida o'smirlarning tarbiyaviy jarayonini qanday tashkil etish kerak q – degan savol yuzaga kelishi muqarrardir. Bu savolga javob berish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

A) o'smirlarining ma'lumotlar bazasini yaratish. Ma'lumotlar bazasi o'smir shaxsiga tegishli barcha ma'lumotlarni qamrab olishi kerak.

B)uzluksiz ta'lim tizimidagi (umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb xunarta'limi tizimi)dagi ijtimoiy muhitning aniq tahlilini amalga oshirish. Aynan muhit qanday darajada ekanligi o'smir tarbiyasiga, uning shaxsining shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadimi, Bu jarayon o'smirlar ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga ta'siri va ularning iqtidorini takomillashtirish imkoniyatlarini yaratish darajalarini o'rganish va taxlil qilish maqsadga muvofik ekanligini ko'rsatadi Muhit tahlili quyidagi ko'rinishda amalga oshirilishi kerak:

- mavjud ijtimoiy muhitning asl holatini aniqlash;
- Pedagog murabbiy-va fan o'qituvchilarning ijtimoiy muhitga munosabatini aniqlash;
- o'smirlarning ijtimoiy muhitga, pedagogik rahbariyati olib borayotgan faoliyatga munosabatini aniqlash;

- o'smirlar orasidagi ijtimoiy fikrni aniqlash;
- yuzaga kelayotgan va yechimini kutayotgan muammolarni aniqlash.

V)Tarbiyaviy jarayonning aniq reja va dasturini ishlab chiqish. Muhit tahlili asosida mazkur reja va dasturda 1-navbatda bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb ishlarni belgilab olish kerak. Bunda quyidagilar aniq ko'rsatilishi lozim:

- ta'lim tizimidaning bosqichlari orasidagi tarbiyaviy uzviylikni amalga oshiradigan tarbiyaviy ishlar;

- o'smirlar uyida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar;

- jamoat tashkilotlari, turli jamg'armalar va homiy tashkilotlar bilan amalga oshiriladigan ishlar;

- maktablar, KXX va AK.litseylardao'tkaziladigan tadbirlar;

- o'smirlar o'zini-o'zi boshqaruvi amalga oshiradigan ishlar;
- o'smirlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish ishlari;
- salbiy oqimlar, zararli g'oyalarga qarshi kurash muhitni shakllantirish.

G) Tarbiyaviy jarayonning monitoringini yaratish. Amalga oshiriladigan barcha ishlarning yagona monitoringini shakllantirish orqali, jarayonni bevosita kuzatish imkoni yuzaga keladi. Bundan tashqari jarayonning borishini tahlil qilish mumkin.

D) O'smirlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish va ta'lim tarbiyani olib borish jarayonida joylarda mafkurviy kurash muhitini yuzaga keltirish. Jamiyat hayotiga va uning rivojlanishiga tahdid soluvchi har xil oqimlar, zararli g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, har xil yot mafkuraga qarshi kurash muhitini yaratish – uzluksiz ta'limtizimi oldidagi o'ta dolzarb vazifadir. Bu vazifalarni amalga oshirishda jamiyat talabidan kelib chiqib, psixologik va pedagogik texnologiyalarni jarayonga qo'llash lozim. Bundan tashqari quyidagi ishlarning sifatini ta'minlash lozim:


- o'smirlar bilan individual faoliyat olib borish;
- tushuntiruv va targ'ibot ishlarida yangi texnologiyalarni qo'llash;
- ijtimoiy o'zgarishlar mohiyatini o'smirlar ongiga aniq yetkazish;
- auditoriyadan tashqari tarbiya ishlarini takomillashtirish;
- mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirish;

o'smirlarning bo'sh vaqtini maqsadli rejalashtirish.

2.2 Intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.

Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana shu psixologik jihatlarni e'tiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratiladi. Yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish manbalarini quyidagi 1-shaklda ifodalab beramiz:

Chizma-1



uyg'otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.

2. Mana shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual ijodiy salohiyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Mana shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini oshirib boradi.

Chizma-1

Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlari				
Ko'p qirrali jarayon	Uzoq muddat davom etadigan jarayon	Yaxlit holda amalga oshiriladi	Yoshlarning faolligi, ikki tomonlama xususiyat	Qarama-qarshiliklarning ko'pligi
Ko'p qirrali jarayonda o'quv maskani, oila, mahalla va keng jamoatchilik, kino, teatr, televidenie, adabiyot va san'at ishtirok etadi.	Bu jarayonga bolaning tug'ma iste'dodi kiradi. Bu xususiyatda ta'limdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab davrida, undan keyin, va butun umr davom etadi.	Intellektual ijodiy salohiyatning ta'limdan farqlantiruvchi xususiyati yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Bunda tarbiyaning turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan.	Bunga yoshlarning tug'ma iste'dodi hamda olgan bilimlari asosidagi intellektual ijodiy salohiyati kiradi. Bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, bunda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.	Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan intellektual ijodiy salohiyat bilan ta'lim-tarbiya tomonidan tarkib toptiri-layotgan sifatlar o'rtasida o'quvchi-larga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoni-yatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.

Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishni t'y'ri y'lga k'yish uchun y'kuvchi-talabalar ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirlarni belgilab ularni ikki guruxga ajratamiz:


«Intellektuallar» guruxi

- 1) «Zakovat», «Iktidor», «Imkon» kabi intellektual y'inlarni y'tkazish;
- 2) «Eng yaxshi tarixchi, matematik, dasturlovchi, fizik, biolog, filolog ... va xokazo» nomlarda tanlovlar y'tkazish;
- 3) ilmiy y'nalishdagi ishlarni tashkil etish, ilmiy anjumanlar y'tkazish;
- 4) «Yosh dasturlovchilar», «Yosh astronomlar», «Yosh ixtirochilar», «Yosh konstruktorlar», «Yosh texniklar», «Yosh radiotexniklar», «Yosh iktisodchilar» kabi klublarni tuzish.

«Ijodkor va iste'dodli yoshlar» guruhi

- 1) «Eng yaxshi she'r, rasm, foto, kashta, so'zana va hokazo» nomlarda tanlovlar o'tkazish;
- 2) «Quvnoqlar va Zukkolar» klublari jamoalari bellashuvlarini o'tkazish;
- 3) «Eng yaxshi hamshira, hisobchi, oshpaz, chilangar, suvchi, hosilot, terimchi va hokazo» nomlarda tanlovlar o'tkazish;
- 4) «Yosh musavvir», «Yosh musiqashunos», «Yosh kitobxon», «Yosh ijodkor» kabi klublarni tuzish;
- 5) ijodkor yoshlarning ijodiy kechalari va ko'rgazmalarini tashkil etish;
- 6) umumxalq bayramlari, Xalqaro va Milliy bayram kunlari munosabati bilan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- 7) Buyuk mutafakkirlarimizning tavallud kunlariga bag'ishlangan bayram kechalarini sahnaviy ko'rinishlarini uyushtirish;
- 8) Mustaqil ravishda biror bir mavzuga bag'ishlangan badiiy kompozitsiyalar tayyorlash;

- 9) Badiiy havaskorlik to'garaklarining ishini jonlantirish va musobaqa tariqasida o'tkazilishini tashkil etish;
- 10) Ijodiy ishlar majmuasini ommalashtirish.
- 11) Eng yaxshi ijodkor talaba sovrinini tashkil etish
- 12) Yil eng yaxshi iste'dodli talabalasi rukni ostida ko'rik tanlov tashkil etish. Bundan tashqari yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini muntazam rivojlantirish ishlarini amaliyatga tadbiq etish uchun har bir pedagog har bir darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini kuzatib borishi kerak. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirib borish uchun quyidagi sxemada berilgan (3-shakl) usullardan foydalanishni tavsiya etamiz:
- Chizma-2



Aql charhi mashqlarini o'tkazish: bunga turli rebuslar, krasovordlar yechish, shaxmat va shashka o'yinlarini musobaqa shaklida tashkil etish kiradi.

Yosh qalamkashlar to'garaklarini o'tkazish: bunga yoshlarning ijodiy mahoratini, iste'dodini oshirib borishga qaratilgan tadbirlari majmuasi kiradi. Masalan, yoshlar orasida yetishib chiqayotgan yozuvchi va jurnalistik mahoratga esa bo'lgan yoshlar bilan ishlash.

Chaqonlar va epchillar sport o'yinlarini o'tkazish: bunga barcha turdagi sport musobaqalarini o'tkazish kiradi.

Mushoira, g'azalxonlik ko'rik tanlovlari o'tkazish: bu usulga yoshlarning she'r va g'azallar orqali ijod qilishi kiradi. Bunga "She'r kechasi" tadbirlarini o'tkazish kiradi.

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlari o'tkazish: bu tanlov orqali yoshlarning san'at, teatr va rassomchilikka bo'lgan qiziqishi orttiriladi va zukkolik mahorati baholanadi.

Ustoz-shogird ishlarini takomillashtirish: bu usulni amalga oshirish uchun eng yaxshi ish olib borayotgan shogirdlari undan juda mamnun va minnatdor bo'lgan pedagog-ustozning ishlarini ommalashtiriladi.

Albatta yoshlarning ijodiy barcha ishlarini va iste'dodli mahoratlarini baholash, ularni turli sovg'a va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan nazariy xolat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri xisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, xarakter xamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bogliq bo'lgan tabiiy iqtidor, iste'dod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muxit ta'siri ostida rivojlanadi. Shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi qobiliyatlar unga kandaydir tabiat tomonidan tugma ravishda, tayyor xolda berilmaydi, balki xayot va faoliyat jarayonida tarkib topadi. Kishi dunyoga xech kanday psixik xususiyatlarsiz, fakat ularni orttirishga karatilgan umumiy imkoniyatlar bilan keladi, xolos. Xozirgi paytda iste'dod nishonalarini miyaning va sezgi organlarining mikrostrukturasi bilan boglaydigan nazariya eng maxsuldor xisoblanadi. Miya xujayralarini chukur urganish iste'dodli kishining nerv turkumalarini kursatadigan morfologik

va funksional xususiyatlarida fark borligini aniklash imkoniyatidadir deb taxmin kilish mumkin. Shuningdek, iste'dod nishonalarini nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari bilan (nerv kuchi, muvozanatlashuvi va xarakatchanligi urtasidagi farklarga karab) va shu bilan oliy nerv faoliyati turlari bilan boglovchi gipoteza xam xakikatga yakinrokdir.

Bulardan tashkari, kobiliyatlarni tabiiy asoslarini nerv sistemasining xususiy xususiyatlari deb atalgan xususiyatlar bilan boglaydigan, ya'ni ayrim odamlarda kurish, boshka odamlarda eshitish, uchinchi bir xilida esa xarakat soxasida namoyon buladigan uziga xos tipologik xususiyatlar bilan boglaydigan gipotezalar yana xam xakikatga yakinrokdir. Jiddiy statistika kobiliyatlar va iste'dodlarning irsiyat yuli bilan utishini isbotlaydigan xech kanday dalillar bermaydi. Kobiliyatlarning irsiyat yuli bilan utishi xakidagi ilmiy nazariyaga xam karama – karshidir. Garchi kobiliyatlarning rivoji xar turli odamlarda mutloko bir xil bulmagan tabiiy shart-sharoitlarga boglik bulsa xam, yukorida kurib utilgan iste'dod nishonolari va kobiliyatlar urtasidagi nisbat, kobiliyatlar shunchaki tabiat in'omi emas, balki kishilik tarixining maxsuli ekanligini kursatadi. Agar xayvonlarda oldingi avlod yutuklarining keyingi avlodga utkazib berilishi asosan organizmning irsiy morfologik uzgarishlari orkali amalga ohsa, insondat bu ijtimoiy-tarixiy yul bilan, ya'ni mexnat kuroli, til, san'at asarlari va shu kabilar bilan amalga oshadi.

Kishi uzida muayyan faoliyatga kobiliyat bor yoki yukligini sezish yoki sezmaslmigini bildiradigan omil ta'lim metodikasi xisoblanadi. Ta'lim metodikasi kaerda ojiz bulsa, usha yerda kobiliyatlarining tugma ekanligi xakidagi gaplar paydo buladi. Uz-uzidan ma'lumki, metodika doim takomillashib boradi, bu esa «tugma kobiliyatlar» doirasini torayib borishiga olib keladi. Kobiliyatlar va iste'dodlarni shakllantirish muammosi katta ijtimoiy va davlat axamiyatiga ega bulgan masaladir. Inson kobiliyatlarini rivojlantirishning muxim omillari – barkaror maxsus kizikishlardan iborat. Maxsus kizikishlar – bu insoniyat faoliyatining kandaydir soxa mazmuniga bulgan kizikishlari bulib, bu kizikishlar ana shu turdagi faoliyat bilan kasb tarikasida shugullanish moyilligiga usib kutariladi. Bilishga doir kizikish bu urinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni ragbatlantiradi. Biror mexnat yoki ukuv faoliyatida kizikishning paydo bulishi bu faoliyatga nisbatan kobiliyatlarining uygonishi bilan chambarchas boglikligi va kobiliyatlarining rivojlanishi uchun dastlabki zamin sifatida xizmat kilishi kayd etilgan. Ko'pgina burjua olimlari qobiliyatlar tugma bo'ladi va avloddan –avlodga o'tib turadi, deb hisoblaydilar. Bu nazariya tarafdorlarining davo qilishicha unchalik qobiliyatli bo'lmagan ko'pchilik kishilar orasidan layoqatli kishilar oilalari kam bo'ladi, bu oilalardagi kishilarning qobiliyatlari avloddan avlodga o'tib keladi. Ayrim burjuaziya tadqiqotchilarining ma'lumotlariga qaraganda anashu “Talant makonlari” hamisha imtiyozli sinflarga mansub bo'lib, ayni vaqtda mehnatkash xalqning ko'pchiligi orasida qobiliyatli kishilar deyarli yo'q emish. Shuni ko'rish qiyin emaski bunday konsepsiya burjua olimlarining oddiy kishilar tug'ma ravishda mukammal emas, boy va mashhur kishilar tabiatan qobiliyatli deb ilmiy jihatdan isbotlashga intilishga, bu bilan esa ularning xalq ommasi ustidan rahbarlik qilish va ekspluatatsiya qilish huquqini oqlashga qaratilganligini ko'rish qiyin emas. Shu narsa ravshanki anashu “Olimlar” ning chiqargan bu xulosalaridan hech qanday ilmiy narsa yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Lekin qobiliyatlar to'g'risida bunga butunlay qarama-qarshi bo'lgan nuqtai nazar ham mavjud bo'lib, bu nuqtai nazar tug'ma sifatlarni to'la-to'kis inkor qiladi va hamma narsa faqat tarbiyaga hamda kishi voyaga yetib, rivojlanayotgan, ishlayotgan shart-sharoitga bog'liq deb hisoblaydi. Xozirgi zamon psixolog olimlari qobiliyatlar miya va sezish organlarining tuzilishiga bog'liq ular har xil kishilarda tug'ilgan vaqtidayoq turlicha bo'ladi deb hisoblaydilar. Har bir kishida tug'ma layoqat nishonolari ya'ni miyaning oliy nerv faoliyatining analizatorlarining o'ziga xos xususiyatlari bor bo'ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo'lgan muayyan moyillik anashunga bog'liqdir. Tabiiy anatomik –fiziologik layoqat nishonolari qobiliyatlarining fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan loyoqat nishonalarining majmui kishining istedodi deyiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, qobiliyat faoliyat davomida rivojlanadi. Akademik B.A.Obruchev muskullar singari qobiliyatlar ham mashq paytida rivojlanadi deb bekorga aytmagan shuning uchun qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti-*faoliyatga bo'lgan ehtiyojni* tarbiyalashdir. Ishlashni yoqtirmaydigan, aqliy mehnatdan ham jismoniy mehnatdan ham o'zini olib qochadigan kishilarga qobiliyatlar rivojlanmaydi. O'z faoliyatida

katta muvaffaqiyatlarga erishgan barcha ardoqli kishilar qobiliyatlarini rivojlantirish uchun *jiddiy mehnat qilishning* ahamiyati haqida gapiradilar. “Talant, -deydi mashhur aviakonstruktor, ikki marta socialistik Mehnat Qahramoni A.Syakovlev, - olloning inomi emas... bu avvalo sabr toqatga ko‘paytirilgan mehnat, mehnat va yana bir karra mehnatdir. Mehnatga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga *qiziqish* va unga *odatlanish* katta ahamiyatga egadir.

Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan uzviy bog‘langan. Kishining talanli ekanligi ma‘lum darajada uning psixik jarayonlari (idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, tasavvuri, diqqat), shuningdek, ko‘pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim qobiliyatlarni rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo‘lishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shaxsdagi ko‘pgina jarayonlar va xususiyatlarning ayniqsa kuchli rivojlanishi kishining umumiy ravishda har tomonlama layoqatli bo‘lishga olib keladi. Kishi o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug‘ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo‘lib, qolmasligiga intilish kerak.

Qobiliyatlar-shaxsning faqat bir tomoni, uning psixik xususiyatlaridan biridir. Agar talantli kishi axloqiy jihatdan qat‘iyatli bo‘lmasa, u ijobiy shaxs deb hisoblanishi mumkin emas. Aksincha, yuksak ma‘naviy darajaga, prinspiiallik, axloqiy his-tuyg‘ularga va kuchli irodaga ega bo‘lgan layoqatli kishilar jamiyatga juda katta foyda keltirganlar va foyda keltirmoqdalar. Testlarni tatbiq etish o‘quvchilarga o‘z shaxsiyatidagi xususiyatlarni chuqurroq anglash, kasb tanlashdek murakkab muammoning yechimini oson topish, o‘z shaxsiyatining kuchli va ojiz tomonlarini chuqurroq bilib olish imkonini beradi. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muxim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaqlarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko‘ra shaxs qobiliyatlari yunalishini ochib berishdir. Shuning uchun xam hozirda ko‘plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qullanmokda qobiliyatlarni o‘lchash muammosi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib izchil xal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o‘rgananildi. Ular qobiliyat va iqtidorni o‘rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar - topshiriqlar batareyasidan iborat bo‘ladi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo‘lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o‘lchaydi. Bu yerda vaqt mezonini muxim xisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi ‘vfc deb, boshqacharoq usullarni o‘uylab topganlar. Ko‘pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o‘lchashning ishonchli mezonini - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o‘zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi Ye.A.Klimov yoshlar iqtidorining yo‘nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - xunar soxalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so‘rovnomasi» deb atadi. Shunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo‘naltirilgan soxasiga ko‘ra 5 toifaga bo‘ldi:

P(T) - tabiat (o‘simlik, xayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari);

Ch(O)- odam (odamlar guruxi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli malumotlar, belgilar simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san‘at, musiqa).

So‘rovnomasi shaxsni turli kasblarga moyilliqni aniqlaydi. Unga 20 juft savollar kiritilgan bo‘lib, tekshiriluvchi maxsus javob varaqasida qay darajada u yoki bu mashg‘ulot turi bilan shug‘ullanishga moyilligini belgilashi kerak. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muxim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaqlarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko‘ra shaxs qobiliyatlari yunalishini ochib berishdir. Shuning uchun xam hozirda ko‘plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qullanmokda.

3-BOB O‘smirlarning ijodkorlik qobiliyatlarini baholashning psixologik usullari

3.1 O‘smirlarning ijodkorlik qobiliyatlarini baholash

usullari va mezonlari hamda ularga zamonaviy yondashuv.

Milliy an'analar urf-odatlarimizning tiklanishi, milliy, umumbashariy va umumma'naviy qadriyatlarimizni hayotimizga tatbiq etilishi xalqimizning turmush sharoitini o'zgarishiga olib keldi. Jamiyatimiz uchun bilimdon, fidokor, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash imkoniyati yaratildi. O'zbek xalqi yuksak aql-zakovatga dunyoni boshqarish qudrati, salohiyati, qobiliyatiga ega bo'lgan sohibqiron Amir Temur kabi sarkardalar, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy kabi ulug' muhandis majtahid ulamolari, Abu NasrForobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlari bilan birgalikda Ul-Umaviy, Hofiz Sheroziy kabi musiqashunos olimlari, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ulug'bek kabi mutafakkirlari bilan faxrlanib qolmay, ularning ishlarini davom etishiga, fan sohasida yangiliklar yaratishga ham qodirdirlar.

Shuningdek, mamlakatimizda nomlari jahon fani tarixiga kirgan olimlarimiz ko'plab topiladi. Bizda madaniy saviyani oshirish, xalqimiz orasida ko'plab bunyodga kelgan talant va salohiyatlarni kamol toptirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Iste'dodning o'sib kamol topishi uchun faqat muhit ta'sirining bir o'zi kifoya qilmaydi. Bunda eng muhim narsa ta'lim va mahsus tarbiyadir. Qobiliyat ta'lim jarayonida, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, bilimlarning ijodiy qo'llanishida, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayonida, inson faoliyatida kamol topadi. Masalan, muzikachi bo'lish uchun tabiiy qobiliyat va qulay sharoit bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi, balki o'qish, muzika nazariyasini o'rganish, texnikani va mahsus fanlarni bilish kerak bo'ladi. Yaxshi uchuvchi, injener, umuman qanday bo'lmasin har bir sohada mutaxassis bo'lish uchun tegishli ma'lumot va tarbiya olishi kerak.

Ta'lim jarayonida kishi mahsus ko'nikmalar va faoliyat texnikasini egallaydiki, ularsiz uning na iste'dodi yuzaga chiqadi va na qobiliyati o'sib yetiladi. «Men foydalangan texnikaning rivojlanganligi soyasidagina – deb yozgan edi A.N.Rimskiy Korsakov, - mening ijodiyotim yangi jonli kuchga ega bo'ladi va mening bundan buyon ijodiy faoliyatim uchun yo'l ochildi».

Ma'lumki, barcha yuksak iste'dodli kishilar ko'p va tirishib o'qiganlar. Iste'dod ayni ta'lim-tarbiya jarayonida, kishining tarkib topayotgan qobiliyatlarida ravshanroq ko'rina boshlaydi. Chunonchi, kishining, masalan, muzika, adabiyot, texnika, matematika va boshqa shu kabilarga bo'lgan iste'dodi ta'lim-tarbiya jarayonida oshkor bo'ladi.

Qulay sharoit, o'qitish va tarbiya odamdagi layoqatning barvaqt uyg'onishiga imkon beradi. Masalan, Rimskiy-Korsakov onasi kuylagan kuylarni ikki yoshdanoq, otasi pianinoda chalgan kuylarni to'rt yoshida takrorlar, xirgoyi qilar edi va otasidan eshitgan kichik muzika asarlarini tez kunda fortepianoda o'zi chala boshlagan. Motsart uch yoshdan boshlab klavesinani (pianinoga o'xshash muzika asbobini) chala boshlagan, eshitgan muzika asarlarini hayron qolarli darajada darrov esida qoldirgan. To'rt yoshida o'zi ham muzika asarlari yarata boshlagan. Gaydida to'rt yoshidayoq muzikaga bo'lgan qobiliyat ko'rina boshlagan. Prokofev sakkiz yoshida kompozitor bo'lib tanila boshlagan.

Rassomlik sohasida Rafaelning ijodiy qobiliyati sakkiz yoshida, Mikelanjeloda o'n uch yoshida, I.Ye.Repin bilan V.A.Serovda to'rt yoshida, V.I.Surikovda olti yoshida ko'rina boshlagan. Aleksandr Ivanov o'n bir yoshidayoq tasviriy san'at Akademiyasiga kirgan. Igor Grabar o'zi haqida: «Rassomlikka necha yoshda havas qo'yanligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaqtimni xotirlay olmayman», deydi.

Poeziya sohasida Pushkin va Lermontovlarning ijodiy qobiliyatlari juda erta ko'rina boshlagan. Pushkin to'qqiz yoshida Lermontov o'n yoshida, A.Navoiy 5 yoshida ijod qila boshlagan. Ularning 7-13 yoshlaridayoq asarlari bosilib chiqa boshlagan. Bayron bilan Shiller o'n olti yoshda yoza boshlagan.

Bizning maktablarimizdagi ta'lim-tarbiya ishlari bolalarga faqat bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning barcha qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutgan holda olib boriladi.

Kishilar o'zidagi turli faoliyatlarga bo'lgan tug'ma layoqatlarini jamoada, o'z ustida tinmay ishlash jarayonida ro'yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, ilmiy to'garaklar, fan olimpiadalariga ishtirok etish, ilmiy anjumanlarga ishtirok etish tug'ma layoqatlarni qulay imkoniyatlaridir. Shuningdek, o'quv va mehnat faoliyatida odamning layoqatlari uyg'onadi va qobiliyatlari o'sadi, xalq talantlari shular jarayonida oshkor bo'ladi.

Har bir shaxsning o'zi aktiv xarakter qilgandagina ijtimoiy muhit, o'qish va tarbiya kishining layoqatini uyg'otmog'i va iste'dod hamda qobiliyatlarini o'stirmog'i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o'sadi va tarkib topadi.

Kishining o'z faoliyatiga qanday munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Agar kishi o'z ishini sevib, mehr bilan qilsa, u vaqtda kishining bu sohada salohiyatlari kuchliroq yuzaga chiqib boshlaydi, uning qobiliyat va mahorati tezroq o'sib boradi. Ishga muhabbat qo'yish – u ishga qiziqish, havas qo'yish demakdir. Shu sababdan kishining qobiliyati uning qiziqish-havaslari bilan mustahkam bog'liq va qiziqishning o'sib borishiga qarab, kishi qobiliyati ham o'sib boradi. Qiziqishlar esa hammadan ko'ra ko'proq, faoliyat jarayonida va o'sib borayotgan qobiliyatlarga bog'liq ravishda o'sadi.

Yuksak va olijanob maqsadlar kishining barcha ruhiy kuch va qobiliyatlarining o'sishiga katta stimullar bo'lib xizmat qiladi.

Durust, ayrim vaqtlarda kishining qobiliyati bilan havaslari bir-biriga mos bo'lmazligi ham mumkin, masalan, kishi ma'lum bir sohada qobiliyat ko'rsatadi, ayni vaqtda boshqa bir sohaga ham qiziqadi. Bunday hodisa ko'proq kishining qobiliyatlari hali to'liq tarkib topib yetmagan va oshkor bo'lmagan davrlarda uchraydi.

Qobiliyatning o'sishida mayyan faoliyatga qiziqish va muhabbat qo'yish bilan bir qatorda, kishi o'z ustida ishlashi, uning mehnat faoliyati hamda bilimlari, ko'nikma va malakalarini ijodiy ravishda – qo'llana olishi ham katta ahamiyatga egadir.

Ayrim kishilar bolalik va o'quvchilik chog'larida, ular uchun qulay sharoit bo'lishiga qaramay, hech qanday o'z zehni va qobiliyatlarini ko'rsata olmaganliklari ma'lumdur. Bunday kishilar keyinchalik sabot va chidam bilan o'z ustlarida mustaqil ishlashlari natijasida o'zlarining zo'r qobiliyatga ega ekanliklarini ko'rsatganlar.

Ko'p vaqtlardan beri shu narsa ma'lumki qobiliyat bilan o'zlashtirish hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Masalan, Gogol Nezhinskiy gimnaziyasida o'qiyotganida adabiyotdan «3», inshodan esa «2» baho olardi. Mendeleev gimnaziyada «o'rta hol» o'quvchilardan biri bo'lib hisoblanishiga qaramasdan, keyinroq borib genial olim bo'lib yetishdi. A'lochi bo'lib o'qiganlardan ko'pchiligining oddiy xizmatchi bo'lib qolganligi ham sir emas.

Moskva matematika maktabiga asos solgan, hozirgi zamon matematikasida yangi oqim yaratgan atoqli olim, akademik Luzin maktabda o'qigan davrlarida matematika fanidan «2» bahoga o'qir edi, uyda matematikadan yordamchi o'qituvchi bilan tayyorlanardi. O'sha o'qituvchining so'ziga qaraganda, Luzin fanga tamoman layoqatsiz edi.

Taniqli kinorejissyor S.M.Eyzenshteyn maktabda o'qigan vaqtida rasm darsidan faqat «3» baho olib o'qir edi. Lekin keyinchalik u o'z ustida tinimsiz ishlashi natijasida kinematografiya san'ati sohasida talantini ko'rsatdi.

Mashhur kishilar hayotini olib qarasa, ular ijodiyotida eng muhim o'rinni ishg'ol qilgan narsa ularning tinimsiz ishlash qobiliyatiga ega bo'lganliklari, belgilangan maqsad yo'lida oylab, yillab, o'n yillab ishlay bilishlari va charchamay unga erishish yo'llarini izlashlari bo'lgandir. Ma'lumki, maktabdagi o'quvchilar orasida darslardan ulgurmaydigan bolalar ham uchraydi. Bunday o'quvchilarning darslardan ulgurmasdan orqada qolish sababini sinchiklab tekshirish shuni ko'rsatadiki, ularda o'qishga moyillik bo'lmaydi yoki ular dars tayyorlash yo'llarini bilmaydilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ularda o'qishga bo'lgan qiziqish va istak tug'dirish, shuningdek, ularda dars tayyorlash malakasini hosil qilish ularning darsdan ulgurib borishlariga imkoniyat beradi.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog o'quvchilarga muayyan fanlardan bilimlar berish, malaka hosil qilish, ularning his va irodasiga ta'sir etish bilan bir qatorda, ularning har birini jamiyatning munosib quruvchilari bo'lib yetishishlari uchun tinmay o'z ustilarida ishlash lozim ekanligini ular ongiga singdirish kerak. O'quvchilarning kelajak mehnat faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlari faqat ularning maktabda oladigan bilim va malakalariga bog'liq bo'lmay, balki, asosan, o'zlarining bundan keyingi o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari orqali yangi bilimlar hosil qilib borishlariga bog'liq ekanligini ularga tushuntirish orkali biz ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ega bo'lamiz.

Ijodiy qobiliyatlar bilimlar, ko'nikmalarda emas, balki ularni egallagan dinamikasida ya'ni bilim, ko'nikmalar qanday sharoitda tez, chuqur va oson egallanishida namayon bo'ladi. Bu tushunchadan bugungi kunda ham foydalaniladi. Va nihoyat, yana bir tushunchani ko'rib

chiqamiz. “Ijodiy qobiliyat – bu bilim ko‘nikma va malakalarni namayon bo‘lishi emas, balki ularni tez o‘zlashtirilishi va un amaliyotda samarali qo‘llanilishidir”. Ushbu tushunchaning yangiligi va to‘laligi nimadaq

Ushbu tushunchada ijodiy qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarga tenglashtirilmay, ularga nisbatan insonning munosabati, bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish yengilligi, tezligi va chuqurligi, hamda ularni ma’lum bir faoliyatini yengil o‘zlashtirishda va shu faoliyatning muvaffaqiyatli bajarishda namayon bo‘ladi.

Shunday qilib, qarama – qarshiliklarni yengish hamda haqiqatni izlash oqibatida olimlar quyidagi xulosaga keldilar, “Ijodiy qobiliyatlar – shaxsning individual psixologik xususiyati bo‘lib, unga bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni o‘zlashtirilishining to‘liqligi, yengilligi, chuqurligi, hamda turli faoliyatni o‘zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarishga bog‘liqdi” bu tushunchani psixologiyaga yirik Rossiya olimi B.M.Teplov (1896-1965) kiritgan bo‘lib, u bugungi kunda keng tarqalgandir.

Yuqorida aytib qtilgandek B.M.Teplov qobiliyatlarining umumiy nazariyasini ishlab chiqishiga o‘z xissasini qo‘shgan B.M.Teplovning fikricha “Qobiliyatlar” tushunchasi o‘z ichiga uch g‘oyani qamrab oldi: “birinchidan, qobiliyatlar deganda bir odamni boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar tushuniladi.

Ikkinchidan qobiliyat deganda har qanday individual psixologik xususiyatni emas biror bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi xususiyat tushuniladi.

Uchinchidan, “Qobiliyatlar” odamning bilimlari, ko‘nikmalari va malakalariga tenglashtirimasligi lozim.”.

B.M.Teplovning fikricha qobiliyatlar doimiy rivojlanishdagina mavjud bo‘lishi mumkin.

Rivojlanmagan, amaliyotda qo‘llanilmaydigan qobiliyat vaqt o‘tishi bilan yo‘qoladi.

- Axborot texnologiyalari asrida va ayniqsa, talabalar misolida

- O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini baholashning iqtisodiy samarali usuli – kompyuterdan foydalanish metodikasi

IQ muammolarini tadqiq etishda ko‘plab ilmiy yondashuvlar mavjud. Ularning natijalarini umumlashtirib, kreativ psixologiya va u bilan bog‘liq intellektual qobiliyatlar haqida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

Intellektual “Odarennost(iqtidorli)” shaxsning ijodiy aktivligining shartlaridan biri bo‘lib, ijodiy faoliyatni aktivlashtirishda motivlashtirish asosiy o‘rin tutadi.

1. E.Torrens nazariyasi bo‘yicha IQ intellektga bog‘liq bo‘lmagan faktordir, ya’ni “intellekt bo‘lag‘asida” bu faktor quyidagicha taqqoslanadi: agar IQ 115-120 dan past bo‘lsa intellekt va kreativlik yagona faktorni tashkil etadi, aksincha IQ 115-120 dan yuqori bo‘lsa, IQ intellektga bog‘liq bo‘lmagan kattalik bo‘lib qoladi, bundan kelib chiqadiki past intellektli kreativlik bo‘lmaydi, lekin past kreativli intellektuallar mavjud

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra shaxsning ijodkorlik xususiyatini quyidagi mezonlar orqali tavsiflash mumkin:

1. Ijodiy muammoni ko‘rish va anglash. Idrok etish. Diqqatlilik va e’tiborlilik
2. Muammoning asosiy qirradi va aloqalarini anglash, ko‘ra bilish. Fikrlashning serqirraligi.
3. An’anaviy qarashlardan voz kechish va yangicha fikrni olg‘a surish(Gibkiy myshleniya).
4. Masalalarni yechishda bir qoliplilik va guruxning fikrlaridan chetlashishga xarakat qilish. Real fikrlash.
5. Ko‘plab g‘oya va aloqalarni qayta guruxlash qobiliyati. Ko‘p variantli fikrlash.
6. Ijodkorlik talab qiluvchi muammoni tizimlashtirilgan holda aniq, ravshan tahlil etish qobiliyati.
7. IQ talab etuvchi muammolarni sun’iy, abstrakt tizimlashtirish qobiliyati. (Abstraktnoe myshleniya)
8. G‘oyaning bir butunligi va uning strukturasini his etish qobiliyati.
9. Barcha yangi va g‘ayrioddiy holatlarni qabul qila olish qobiliyati.
10. Noaniq holatlarda konstruktiv aktivlik qobiliyati

Ushbu aytib o'tilgan mezonlar o'smirlarda qay darajada shakllanganligini bilish maqsadida boshlang'ich vaqtda test savollari, so'rovnomalar, anketa savol javoblari o'tkazish ko'zda tutiladi. O'tkazilgan test natijalari asosida tajriba va nazorat guruxlari ajratiladi. Test savollari yuqorida sanab o'tilgan mezonlarni o'zida mujassamlashtirgan holda IQ darajasini belgilovchi quyidagi parametrlarga nisbatan tuzilgan:

1. Masala yechishga, fizika faniga moyillik darajasi
2. Fanga qiziqish darajasi
3. Ijodiy faollik darajasi
4. Ijodiy diqqatning serqirraligi va barqarorligi
5. Amaliyotga ijodiy qo'llash
6. Tasavvur ravshanligi va aniqligi
7. O'z-o'zini baholash

Akliy iste'dod testlari mazmun jixatdan kator savollar va masalalardan tashkil topgandir. Ularni yechish muvaffakiyati (sarflangan vakti xisobga olib) balllar yigindisi bilan xisoblanadi.

Bolalar testlar to'plamini bajarib bo'lgandan keyin ularning natijalarini standartlashtirilgan yul bilan, ya'ni xar bir sinaluvchi olgan ochkolar mikdorini xisoblash bilan shugullanishadi

Endi qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasini ko'rib chiqaylik. Qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi haqida gapirilganda kishining qaysi faoliyatda ishlayotganligi (konstruktorlik, pedagog, sport, iqtisod va h.k) qaysi faoliyat turida ishlab o'zini topishi, muvaffaqiyatga erishish mumkinligi nazarda tutiladi.

Qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi uning miqdor xarakteristikasi bilan uzviy bog'likdir.

Qobiliyatlarning mikdoriy o'lchami o'ziga xos tarixga ega XIX asrning oxiri XX asr boshlarida D.Kettel, L.Termen, B.Skinnerlar insonni o'zi shug'ullanayotgan faoliyatga yaroqligi, uning qobilatlari darajasini aniqlash taklifi bilan chiqadilar. Buning uchun aqliy iste'dod testlaridan foydalanish tavsiya etilgan.

Buni qanday aniqlanganligini ko'rib chiqamiz. Tadqiq qilinuvchi testlarni tugutgach, uning natijalari standartlashgan xalda ballari hisoblab chiqiladi. Bu aqliy iste'dod koefitsientini (IQ — «ay-kyu») aniqlash imkoniyatini beradi.

IQQ ni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$IQ = \frac{\text{aqliy yosh}}{\text{anik; yosh}} \times 100$$

Asliy yosh — intellektni aniqlovchi biror — bir shkala asosida belgilanadi. Masalan, 11,5 yoshli bolaning aqliy yoshi 120 bal shkala bilan aniqlanadi.

Agar ikki bola 100 balldan yiqqan bo'lsa, lekin ularning birini yoshi 9,5 ikkinchisining yoshi 12 da bo'lsa, u xalda

Birinchi bolaning IQQ = _____ = 99,5 ga
9,5

Ikkinchi bolaning IQ = _____ = 80,1 ga tengdir
14

ammo bu borada L.S.Vigotskiyning tanqidiy fikrlari mavjud, zero agar bola berilgan vazifani bajarmasa, uning qobiliyat darajasi aniqlanadi deb hisoblash notug'ri. L.S.Vigotskiy iste'dodni aniqlaydigan tadqiqotlarni takroran o'tkazish lozimligini aytadi, avval mustaqil, so'ng kattalar yordamida. Iste'dod darajasi esa avval mustaqil, so'ng kattalar yordami bilan o'tkazilgan tajribalar natijalarini solishtirish asosidagi farq orqali aniqlanadi. Iste'dod darajasini aniqlashning ushbu usuli L.S.Vigotskiy tomonidan "bola rivojlanishinng yaqin zonasi" deb atalgan.

Shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi kobiliyatlar unga kandaydir tabiat tomonidan tugma ravishda, tayyor xolda berilmaydi, balki xayot va faoliyat jarayonida tarkib topadi. Kishi dunyoga xech kanday psixik xususiyatlarsiz, fakat ularni orttirishga karatilgan umumiy imkoniyatlar bilan keladi, xolos.

Xozirgi paytda iste'dod nishonalarini miyaning va sezgi organlarining mikrostrukturasi

bilan boglaydigan nazariya eng maxsuldor xisoblanadi. Miya xujayralarini chukur urganish iste'dodli kishining nerv turkumalarini kursatadigan morfologik va funksional xususiyatlarida fark borligini aniklash imkoniyatidadir deb taxmin kilish mumkin. Shuningdek, iste'dod nishonalarini nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari bilan (nerv kuchi, muvozanatlashuvi va xarakatchanligi urtasidagi farklarga karab) va shu bilan oliy nerv faoliyati turlari bilan boglovchi gipoteza xam xakikatga yakinrokdir.

Bulardan tashkari, kobiliyatlarni tabiiy asoslarini nerv sistemasining xususi xususiyatlari deb atalgan xususiyatlar bilan boglaydigan, ya'ni ayrim odamlarda kurish, boshka odamlarda eshitish, uchinchi bir xilida esa xarakat soxasida namoyon buladigan uziga xos tipologik xususiyatlar bilan boglaydigan gipotezalar yana xam xakikatga yakinrokdir. Jiddiy statistika kobiliyatlar va iste'dodlarning irsiyat yuli bilan utishini isbotlaydigan xech kanday dalillar bermaydi. Kobiliyatlarning irsiyat yuli bilan utishi xakidagi ilmiy nazariyaga xam karama – karshidir. Psixologiya fani differensial qobiliyatlarning tug'ma bo'lishini inkor etmagan. Qobiliyatlarning rivojlanishiga tabiiy zamin bo'luvchi xatti – harakat organlari va miya tuzilishidagi bu morfologik va funksional xususiyatlar layoqat deb ataladi.

Layoqatlar turlicha yo'nalishda bo'ladi, bir layoqat zaminida turli qobiliyatlar shakllanishi mumkin, bu faoliyat «xarakter»iga bog'liqdir. Bugungi kunda qobiliyatlarni rivojlanishida tabiiy asosning modiyati hakidagi farazlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi hahida kqplab gapirish mumkin. Albatta qobiliyatlar tushunchasi kabi layoqat muammosi ham o'z tarixiga ega. Lekin, ushbu masalarning to'g'ri yechimi hali hqm oxiriga yetmagan.

Qobiliyatni irsiy asoslari bo'yicha fanda turli qarashlar mavjud. Avstraliya olimi F.Gall (1758-1828) miya va alohida qobiliyatlar orasida bog'liklik bor degan farazni ilgari suradi. Ushbu faraz to'g'rimiq Qachonlardir bu faraz juda mashhur edi, u qobiliyatlarni miya bilan bog'lagan edi. Lekin F.Gallning aqlning, talant va qobiliyatlarning sifati miyaning katta yarim sharlarida ayrim joylarda joylashgan degan fikri fanda inkor etilgan. Lekin hali ham miya og'irligi va qobiliyatlar orasida bog'liqlik bor degan fikrlar mavjud. Katta peshonali kishilarni aqli, aql-farosatli, muammolarni tez hal qiluvchi bo'ladi degan fikrlarga hali ham duch kelamiz va aksincha peshonasi tor bo'lgan kishilarga nisbatan esa qarama-qarshi fikrlar bildiriladi. Albatta, bu fikrlar o'z tasdigini topmagan. Inson miyasining ogirligi va k.obiliyatlar urtasidagi boglikushk haqidagi fikrlar ham tasdiqlangan esa. Ma'lumki, katta kishi miyasi 1400 g og'irlikka ega. Shu jumladan, I.S.Turgenevning miya og'irligi 2012, D.Bayronniki -1800g., N.Franeniki 1017, mashxur ximik Yu.Libixniki 1362 g. bo'lganligi aniqlangan.

Yana shu ham ma'lumki bir aqli zaif kishining miya og'irligi katta bo'lgan (2kg.ga yaqin). Demak yuqorida gapirilgan fikrlar o'z isbotini topmadi. Fan esa izlanishlarni davom ettirmokda.

Butungi kunda layoqatlarni miyaning mikrotizimi va sezgi organlari orasidagi bog'liqligi haqidagi faraz o'zining mahsuldorligini namoyon qilmoqda. Bu borada ONFning (umumiy) turlari, shuningdek, ONFning maxsus turlari, psixik faoliyati ustunlik qiluvchi birinchi signallar sistemasi (badiiy tur) va ikkinchi signallar sistemaining (fikrlovii tur) ustivorligi haqidagi ta'limotlari nazarda tutilgan. Shuni unutmaslik kerakki har qanday layoqat qobiliyati darajasiga yetishi uchun ma'lum rivojlanish yo'lini bosib o'tishi lozim. Har qanday qobliyatning birinchi etapi zarur organik tizimlar va funksional organlar yetishishi bilan bog'liq (tug'ilgandan to 6-7 yoshgacha). Maxsus qobiliyatlarning shakllanishi kichik va o'rta maktab yoshigacha davom etadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, qobiliyatlarni faol shakllanishi shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida namoyon bo'la boshlaydi. Shunday vakealar ma'lum jumladan, Motsart 9 yoshida musiqiy pessalarni chala boshlagan. Rafael 8 yoshida, Repkin - 4 yoshida rasm chiza boshlagan, Pushkin 7 yoshida. Lermontov esa - 8 yoshida she'r yozgan. Kibernetika otasi Viner 12 yoshida universitetga o'qishga kirgan. Lekin qobiliyatlarni kechroq namoyon bo'lishi ham mavjud (Akeakov, Shishkov).

Insonning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi faoliyatga quyiladigan asosiy talablar:

- faoliyatning ijodiy xarakteri:
- ijrochi uchun uning yuqri qiyinligi:
- zarur motivatsiya va zarur emotsional tayyorgarlikni ta'minlashni.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, agar bajarilayotgan faoliyat yuqori kiyinchilikda bo’lsa, u bolaning qobiliyatlarini rivojlanishiga asos bo’ladi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning yaqin zonasi deb atagan.


Shuni unutmaslik kerak-ki bola uchun, uning qobiliyatlarini rivojlanishi uchun eng hal qiluvchi sharoit ta’lim va tarbiyadir.

Bugungi kunda Respublikamizda qobiliyatlarni shakllantirish muammosi ijtimoiy va davlat muammosiga aylangan. Ushbu muammoni xal qilish maqsadida Respublika TASHXIS markazlari va barcha viloyat va tumanlarda shunday markazlar tashkil qilingan. Bugungi kunda maxsus qobiliyatlari aniqlangan uquvchilar o’zlarini iqtidorini namoyon qilgan holda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarga ixtiyoriy-majburiy ravishda uz ishlarini davom ettirib, yullarini tanlamokdalar. Bugungi kunda psixologiya fani bu yulda muxim o’rinlarini egallamokda.

Zero, Prezidentimiz I.A.karimov bu borada: «Biz o’z iste’dodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho’qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak», degan fikrlari yuqqrda bayon etilgan mulhazalarin!- yorkin dalilidir.

Inson kobiliyatlarini rivojlantirishning muxim omillari – barkaror maxsus kizikishlardan iborat. Maxsus kizikishlar – bu insoniyat faoliyatining kandaydir soxa mazmuniga bulgan kizikishlari bulib, bu kizikishlar ana shu turdagi faoliyat bilan kasb tarikasida shugullanish moyilligiga usib kutariladi. Bilishga doir kizikish bu urinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni ragbatlantiradi.

Chizma-4



3.3 O'smirlar ijodiy qobiliyatlarini tadqiq etish va olingan

Natijalarni qayta ishlash va umumlashtirish

Neyrotizm va ekstraversiya darajasining namoyon bo'lishiga oid Ayzenk testi

1. Yangi taassurotlarga, ko'ngil ochishga, xayajonlanishga intilasizmiq
2. Sizni tushunadigan, tetiklashtira oladigan yoki tasalli beradigan do'stlarga tez-tez ehtiyoj sezasizmiq
3. O'zingizni beozor odam deb xisoblaysizmiq
4. O'z maqsadlaringizdan voz kechishingiz juda qiyinmiq
5. Bir narsa qilishdan avval shoshmasdan o'ylab ko'rishni ma'qul ko'rasizmiq
6. Uzingizga befoyda ekanligiga qaramay xar doim va'dangizning ustidan chiqasizmiq
7. Kayfiyatingiz tez-tez ko'tarilib va tushib turadimi
8. O'ylab o'tirmay, tez gapirasizmiq
9. Qachondir, garchi buning uchun jiddiy sabab bo'lmasa ham, o'zingizni baxtsiz odam deb xis qilganmisizq
10. Agar ish baxslashishgacha borib yetsa, xamma narsaga tayyor bo'lib qolishingiz to'g'rimi
11. Kelishgan yipit (qiz) bilan gaplashmoqchi bo'lganingizda hayajonlanasizmiq
12. Xafa bo'lib o'zingizni tutolmay qolgan paytingiz bo'ladimi
13. Tez-tez tavakkal qilasizmiq
14. Biror narsani qilish yoki gapirmaslik kerak edi, degan xayollar sizni tez-tez qiynaydimi
15. Siz mashxur kishilar xaqidagi kitoblarni yoqtirasizmiq
16. Sizni ranjitib qo'yish oson, to'g'rimi
17. Davralarda tez-tez bo'lishni yaxshi ko'rasizmiq
18. Boshqa odamlar bilishini istamagan xayollaringiz bormi
19. Ba'zan kuchga to'la, ba'zan esa umuman lanjsiz, to'rrimi
20. Kamroq, lekin yaqinroq do'stlaringiz bo'lishini istaysizmiq
21. Ko'p orzu qilasizmiq
22. Sizga baqirishsa, siz xam xuddi shunday javob qaytarasizmi
23. Aybdorlik xissi sizni ko'p qiynaydimi
24. Odatlaringizning barchasi yaxshi va ma'qulmiq
25. Xissiyotlaringizga erk berib, sershovqin davrada ko'ngil yozishga qodirmisizq
26. Siz haqingizda asablari ko'pincha xaddan tashqari tarang bo'ladi, deyish mumkinmi
27. Tetik va quvnoq odamlardan o'zingizni chetga tortasizmiq
28. Ishni bajarib bo'lgandan so'ng ko'pincha xayolan yana ishga qaytib, yaxshirok, qilishim mumkin edi deb o'ylaysizmiq
29. Davradaligingizda odatda o'zingizni xotirjam xis etasizmiq
30. Mish-mish tashigan paytlaringiz bo'lganmi
31. Xayolingizga xar xil fikrlar kelaverganidan uxlolmagan paytlaringiz bo'lganmi

32. Biror narsa xaqida bilmoqchi bo'lsangiz, bu xaqda do'stlaringizdan so'ragandan ko'ra kitobdan o'qishni ma'kul ko'rasizmiq
33. Yuragingiz tez-tez urib ketgan paytlar bo'lganmiq
34. Zo'r diqqat talab etuvchi ish sizga yoqadimi
35. Titrash xuruji bo'ladimi
36. Agar aytganlaringiz xech qachon fosh bo'lmasligini bilsangiz, xar doim xammabop ruxda gapirgan bo'larmidingiz q
37. Bir-birining ustidan xazil qiladigan kishilar davrasida bo'lish siz uchun yoqimsizmi
38. Serzardamisizq
39. Tez xarakat qilishni talab qiladigan ish yoqadimi
40. Hammasi yaxshi tugaganiga qaramay, yomonlik va daxshatlar xaqidagi xayollar sizga tinchlik bermasligi to'grimi
41. Siz sustkash va bamaylixotirmisizq
42. Uchrashuv yoki ishga qachondir kech qolasizmiq
43. Tez-tez daxshatli tush ko'rasizmiq
44. Suxbatlashishni shu darajada yaxshi ko'rasizki, xatto notanish odam bilan gaplashish uchun qulay fursatni boy bermaysiz, bu to'trimi
45. Qandaydir og'riqlar bezovta qiladimi
46. O'z tanishlaringiz bilan uzoq vaqt ko'rishmasangiz, o'zingizni baxtsiz deb xis qilasizmiq
47. O'zingizni asabiy odam deb atay olasizmiq
48. Siz bilgan odamlar ichida sizga aniq yoqmaydigan kishilar bormi
49. O'zingiz xaqingizda o'ziga ishongan inson, deb ayta olasizmiq
50. Kamchiliklaringiz yoki ishdagi nuqsonlaringizni tanqid qilib sizni ranjitish osonmi
51. Bayram kechasida haqiqatdan xursand bo'lish qiyin, deb xisoblaysizmiq
52. Boshqalarga nisbatan yomonroqman, degan fikr bezovta qiladimi
53. Zerikarli davraga quvnoq rux olib kirish siz uchun osonmi
54. Umuman tushunmagan narsalaringiz xaqida gapirgan naytlaringiz bo'lganmi
54. O'z sog'ligangizdan tashvishlanasizmiq
55. Boshqalarga hazil qilishni yoqtirasizmiq
56. Uyqusizlikdan aziyat chekasizmiq
- Javoblar kaliti (birinchi jadval); E - ekstraversiya N - neyrotizm Yo - yolg'on

Birinchi jadval

Savol __/E1	«Ha»	«Io't\$»	Savol t/r	«Ha» javobi	«Yo'q»	Savol t/r	«Ha» javobi	«Yo'q»
1	e		20		e	39	e	
2	n		21	n		40	n	
3	e		22	e		41		e
4	n		23	n		42		yo
5		e	24	yo		43	n	
6	yo		25	e		44	e	
7	n		26	e		45	n	

8	e		27	e		46	e	
9	n		28	n		47	n	
10	e		29		e	48		yo
11	n		30		yo	49	e	
12		yo	31	n		50	n	
13	e	.	32		e	51		e
14	n		33	n		52	i	
15		e	34		e	53	e	
16	n		35	n		54		yo
17	e		36	yo		55	n	
18		£*	37		e	56	e	
19	n		38	n		57	n	

Shkala bo'yicha ballar xisobida yolg'on beshtadan ko'p bo'lsa, javoblar shubhali xisoblanadi va anketa javoblari ishonchsiz xisoblanadi.

Javoblar omillar bo'yicha jadvalga kiritiladi. Jadvalda neyrotizm o'lchami vertikal o'qda, ekstraversiya-intraversiya esa gorizontaal o'qda joylashgan. Har ikkala o'q 0 dan 24 gacha bo'lgan gradatsiyaga ega.

Natijalarning taxlili 1-gurux nazorat

Qatnashuvchilar	Togri echilgan savollar soni	Noto'gri javoblar soni.	Natijalar % da
1	35	22	52.1%
2	25	32	47%
3	23	34	45%
4	25	32	47%
5	3	54	15%
6	32	25	51.6%
7	3	54	15%
8	15	42	35%
9	12	45	35%
10	15	42	35%
11	12	45	35%
12	26	31	48%
13	32	25	51.6%
14	38	19	60%
15	40	17	62%
16	41	16	65%
17	42	15	70%

18	45	12	80%
19	45	12	80%
20	23	34	45%
21	45	12	80%
22	10	47	20%
23	12	45	25%
24	11	46	21.3 %
25	10	47	20%

2-gurux (tajriba)

Qatnashuvchilar	Togri echilgan savollar soni	Noto'gri javoblar soni.	Natijalar % da
1	45	12	80%
2	45	12	80%
3	23	34	45%
4	25	32	47%
5	46	11	82%
6	35	22	52.1%
7	3	54	15%
8	32	25	51.6%
9	3	54	15%
10	15	42	35%
11	12	45	35%
12	25	32	32%
13	26	31	48%
14	32	25	51.6%
15	38	19	60%
16	40	17	62%
17	41	16	65%
18	42	15	70%
19	33	24	55%
20	12	45	35%
21	10	47	25%
22	15	42	32%
23	17	40	35%
24	30	27	59%
25	12	45	35%

Shaxsiyatdagi iroda xususiyati shakllanganlik darajasining namoyon bo'lishiga

Tekshiriluvchilar guruxi	Olingan natijalarning o'smirlar ijodiy qobiliyatlarining mavjudlik xolati	Tajribadan so'ng xolat	olingan natijalarning qayta ishlanishi % xisobida.
Nazorat	25% ijodiy borlar	layoqati 40%	ijodiy qobiliyatlarning o'sishi 40%
Tajriba.	40% ijodiy faollik	42%.	ijodiy faollikning o'sishi 45%

oid test

(Natijalarni qayta ishlash metodikasi testlar oxirida beriladi).

Har bir savol uchun keyingi ballar beriladi: 1 - bunday bo'lmaydi; 2 - balki, extimol; 3 - bo'lishi mumkin; 4 - extimol, xa; 5 - ishonamanki, ha.

Matssadga yo'nalganlsk

1. Aniq maqsad va vazifalar qo‘ya bilish:

a - kasbiy maxoratni oshirish bo‘yicha 3-4 yil oldin mo‘ljallangan aniq istiqbolli maqsadga egaman;

b - kelgusi yil uchun o‘qituvchim bilan xamkorlikda muvaffaqiyatlar darajasini rejalashtiryapman;

tayyorgarlikning tegishli bosqichlari uchun aniq vazifalar qo‘yaman;

v - navbatdagi mashg‘ulot, sinov va imtixonlar uchun galdagi vazifalarni qo‘yaman.

2. O‘z faoliyatini muntazam amalga oshira olish:

a - aloxida uy vazifalari rejalarini bajaraman; b - va imtixon topshirish rejalarini bajaraman; v - o‘tkazilgan mashg‘ulotlar, o‘tgan sinov va imtihonlarni baxolayman; belgilangan rejalarini tahrir qilaman.

3. Qo‘yilgan maqsadlarga yetishish uchun o‘zini yo‘naltira bilish:

a - maqsadga erishish uchun qat’iy tartibga amal qilaman;

b ~ kasbiy ko‘tarilish maqsadi va vazifasi men uchun kuchli faollik manbasi bo‘lib hisoblanadi;

v - o‘zimning musiqiy mashg‘ulotlarim jarayonidan katta qoniqish xis etaman,

K,at’iyat va matonat

4. Qo‘yilgan maqsadga muntazam erisha olish:

a - men musiqiy cholg‘uda muntazam shug‘ullanaman va dars uchun mo‘ljallangan soatlarim miqdorini qat’iy kuzatib boraman;

b - o‘yin xarakatlari texnikasini puxta egallashga bilan, muntazam harakat qilaman;

v - professional maxoratimdagi kamchiliklarimni ^at’iylik bilan ketma-ket bartaraf etishga harakat qilaman.

5. Yomon kayfiyatni bartaraf qilish:

a - charchash xissi ortib borganda men sabr qilaman va ish sur’atini pasaytirmasdan mashg‘ulotni davom ettiraman;

b - kayfiyatim yomon bo‘lsa-da, «istamayman» yoki «qilolmayman»lardan o‘tib, o‘zimni faoliyatga undayman;

v - zerikarli, lekin kerakli mashqlarni sabr bilan va uzoq muddat qaytarishim mumkin.

6. Omadsizlik va boshqa qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettira bilish;

a - asar ijrosidagi omadsizlik meni maqsadga erishish -yaxshiroq chalishga safarbar etadi;

b - omadsizlik paytida o‘z mashg‘ulotlarimning davomiyligi bilan talg‘ishga moyil bo‘laman;

v - imtixonida bir narsani muvaffaqiyatsiz ijro etib, men ruxan cho‘kmayman va keyingi asarlarni yaxshiroq chalishga harakat qilaman.

Dadillik va jasurlik

7. O‘z vaqtida kerakli qarorni qabul qila bilish:

a - men paysalga solish mumkin bo‘lmagan paytda biror harakat, maqsad, ishni amalga oshirish xaqida o‘z vaqtida qaror •• qabul qila olaman;

b - men tavakkal sharoitida xam zarur harakat xaqida o‘z vaqtida qaror qabul qila olaman;

v - o‘z xamkasblarim (ansambl va orkestr) oldida ma’naviy mas’uliyat sharoitida o‘z vaqtida qaror qabul qila olaman.

8. Qo‘rquv xissini yenga bilish:

a - mas’uliyatli chiqish paytida tavakkal qilish va ishni boshlash xoxishi paydo bo‘ladi (tanlovda nisbatan tez sur’atlarda ijro etishim mumkin);

b - mas’uliyatli chiqish paytida xayolan tashvishlarimdan soqit bo‘laman va divdatimni butunlay o‘z ijro xarakatlarimga qarataman;

v - ma’naviy mas’uliyat sharoitida ongli ravishda yomon kechinmalarni yengib o‘taman va qat’iyat bilan harakat qilaman (betob solist o‘rniga partiyani ijro etib berishim mumkin).

9. Qabul qilingan qarorlarni rad etmasdan bajara bilish:

a - mas'uliyatli ishni (vazifani) bajarish haqida qaror qabul qilinganidan so'ng zudlik bilan uni amaliy bajarishga kirishmaya;

b - murakkab epizod yoki pesani o'ynay boshlasam, xatto xatolarga yo'l qo'ysam ham, bu ishni bajarishda davom etaman, me'yoriga yetkazaman, oxirigacha ijro etaman;

v - murakkab narsalarni ijro etishdagi muvaffaqiyat-sizlik qayta xarakat qilganda muvaffaqiyatga erishishga safarbar etadi.

Sabot va o'zini tuta bilish

10. Fikrlar tiniqligini saqlay bilish:

a - sinov yoki imtixonida ijro paytida xayajonli sharoitga qaramay diqqatimni yaxshi jamlay olaman, e'tiborimni taqsimlab o'zgartira olaman.

b - sinov va imtixonlarda muvaffaqiyatsizlik va xatolar ta'siri ostida «marlubiyatchi» fikrlar va salbiy tasavvurlarga yo'l qo'ymayman;

v - imtixonidagi tarang sharoitda men bilgan va qila oladigan narsalarga muvofiq tarzda o'ylab harakat qila olaman.

11. O'z xisssiyotlarini boshqara bilish:

a - apatiya, o'zini yo'qotish, vahima va bezovtalik sharoitida o'z emotsional faolligimni oson ko'tara olaman;

b - o'zimning emotsional xayajonimni yengil pasaytira olaman (xayajonlanishda, orriqda, g'azablanganda, mas'uliyat xaqida ortiqcha tasavvurda);

v - sinf yoki imtixonida asarni muvaffaqiyatli ijro etsam, ortiqcha o'z-o'ziga ishonch, beparvolik va boshqalar ustidan soxta ustunlik namoyon etmayman.

12. Uz xarakatlarini nazorat qila bilish:

a - xatto charchash, asabiylashish, o'zimdan qoniqmaslik hissi paydo bo'lganda. xam o'z ijro xarakatlarim ustidan nazoratni saqlab qola olaman;

b - sinovdagi muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, men barcha imkoniyatlarim darajasida omma oldida chiqish qilishni davom etgirishga xarakat qilaman;

v - ziddiyatli vaziyatlarda o'zimni axloqsiz ish va xarakatlardan oson tiya olaman (qo'pol so'zlar, tortishish, sinfdan chiqib ketish).

	Maqsadga yo'nalganlisk	O'z faoliyatini muntazam amalga oshira olish:	Qo'yilgan maqsadlarga yetishish uchun o'zini yo'naltira bilish:	K,at'iyat va matonat	Yomon kayfiyatni bartaraf qilish	Dadillik va jasurlik	Sabot va o'zini tuta bilish	Uz xaraka tlarini nazora t qila bilish
Nazorat	20	12	15	18	18	20	10	10
tajriba	24	25	25	23	22	20	20	16
Jami	65% 80%	45% 100%	52% 100%	61.3% 82%	61.3% 80%	65% 65%	40% 65%	40% 55%

Xulosa.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim-tarbiyaga shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

- o'smir bilan munosabatda bo'lishda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha, maslahat berish bu yoshdagi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashning garovidir.

1. Shaxs ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mahsuli sanaladi.

2. Shaxsning shakllanishi irsiy-ijtimoiy omillar hamda tarbiyaga bog'liqdir.

3. Shaxsning shakllanishida faoliyat o'ziga xos, muhim xususiyatga egadir. Zero, shaxs faoliyat yordamidagina ijtimoiy borliq bilan bo'ladigan munosabatni yo'lga qo'yadi, shu asosda uning bilish qobiliyati rivojlanadi.

4. Shaxs jismoniy va psixologik jihatdan kamol topib borar ekan, fiziologiya, pedagogika va psixologiya fanlarida "yosh davrlari" deb nomlangan bosqichlarni bosib o'tadi. Yosh davrlari shaxsning yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi: go'daklik davri, yasli davri, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik davri va o'spirinlik davri.

Ijodkor yoshlarni tarbiyalash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. . Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

2. Tarbiya inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois u shaxs kamolotini ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi.

3. Insonning ma'naviy o'sishi sodir bo'ladi, muhitni stixiyali ta'siri bera olmaydigan sifatlar shakllanadi. Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni maxsus ta'lim yo'li bilangina o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

4. Tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini ham ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi (kar, ko'r, soqov va hokazo). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'lmagan kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatiga qiziqishi bilan bir qatorda uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodli kishilar

o'z iste'dodlari – iqtidor kuchini to'la ro'yobga chiqarish uchun o'z ustlarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari shart.

Tavsiyalar.

Tabiiyki, ўқувчилarning ўз мақсадларига еришишлари uchun та'лим маҳканида олган билим, кўникма ва маалакалари камлик қилади. Улар yuksak мақсад ўйлида ўз устиларида tinmay изланishлари, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishлари lozim.

Fanlarda o'zlashtira olmagan o'quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi – har bir o'quvchining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o'rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko'rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamida bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatлари takomillashib, kamol topadi.

Bundan tashqari quyidagi ishlarning sifatini ta'minlash lozim:

- O'smirlar bilan individual faoliyat olib borish;
- tushintiruv va targ'ibot ishlarida yangi texnologiyalarni qo'llash;
- ijtimoiy o'zgarishlar mohiyatini o'smirlar ongiga aniq yetkazish;
- auditoriyadan tashqari tarbiya ishlarini takomillashtirish;
- mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirish;
- talabalarning bo'sh vaqtini maqsadli rejalashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov L.A. Barkamol avlod - O'zbekiston kelajagining poydevori. T. 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 .
3. Karimov I. Vatanimizning tinchligi va qavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, halqimizning hamjihatligi va buqilmas irodasiga boqliq. T. "O'zbekiston" nashriyoti. 2004. 32 b.
4. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU. 2002. (o'quv qo'llanma).
5. Davletshin M.G. "O'quvchilarning texnika qobiliyati psixologiyasi" Toshkent 1971
6. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
7. Karimova V. Akramova F. Psixologiya. T. 2000.
8. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma). T. 2002.
9. Kap-Kalik. Uchitelyu o pedagogicheskoy obqenii. M. "Prosveqenie". 1987. (o'quv qo'llanma).
10. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. T.: O'zbekiston, 1995. -23 b.
11. B.Ziyomuxammadov .Komillikka eltuvchi kitob. "Turon-iqbol nashriyoti", Toshkent, 2006. 189-262 betlar
12. Iragimov X.I. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. (o'quv qo'llanma). Toshkent: "Fan" ,2004. 184-bet.
13. I.A. Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh.: "Sharq" nashriyoti, 1997, 42-bet.
14. Iragimov X.I. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. (o'quv qo'llanma). Toshkent: "Fan" ,2004. 184-bet.
15. Davletshin M.G. va boshqalar. qobiliyat va uning diagnostikasi. -T.: O'qituvchi, 1997. -134 b.
16. Gumanisticheskie idey otrajeny v psixologicheskoy teorii lichnosti . MO Rossii. - A.N. Leonteva i S.L. Rubinshteyna, 1981.
17. E.G'oziev. Psixologiya. (o'quv qo'llanma) T.: O'qituvchi, 1994. 224 b.
18. E.G'oziev. Oliy maktab psixologiyasi. T. O'qituvchi, 1997. 104 b.
19. E.G'oziev, G. To'laganova. Pedagogik psixologiya asolari. (o'quv metodik qo'llanma) T.: Universitet, 1997. 80 b.
20. Z.T. Nishonova . Ijodiy mustaqil fikrni tarbiyalashda o'qituvchining rolini yanada oshirish // Ta'lim va tarbiya. – 2001. -№1-2 . -B. 40-42.
21. Z.T. Nishonova. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.: Fan.- 2003.-114 b.
22. Panasyuk A.Yu. Psixologicheskaya nauka na slujbe u rukovoditelya. M. 1990. (o'quv qo'llanma).
23. G'oziev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001 .
24. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. T. 1999.
25. G'oziev E. Psixologiya. T. "O'qituvchi" nashriyoti. 2003. (darslik)
26. G'oziev E . Umumiy psixologiya. (ma'ruzalar matni) N. 2002.
27. Maxsudova M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo'llanma) N. 2003.
28. Maxsudova M. Ko'rbonova Z. Umumiy psixologiya. N. (muammoli ma'ruzalar matni). 2004.
29. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. (muammoli ma'ruzalar matni). N. 2004.

[Inteirnetdan foydalanilgan axborotlar ro'yxati](#)

[Iste'dod fondi](#) Markaz xodimlarining maqolalari «Intellectual salohiyat» Markazi xodimlarining maqolalari Pardayev A.X. i...

11.01.2007 - 40 Kb - <http://www.istedod.uz/qpage&pid=33&submenu=38&lang...> - [Iste'dod fondi](#)

1.4. Intellectual salohiyat, inson kapitalini oshirish borasidagi jahon va mahalliy tajribalarni qiyosiy... 11.01.2007 - 10 Kb - <http://www.istedod.uz/qpage&submenu=35&pid=33&lang...> - Vosstanovit tekst - Nayti poxoje


▪ [Iste'dod fondi](#) ... O'zbekiston espublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi «Intellectual salohiyat» Markazi direktori o'rinbosari, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va...

- 11.01.2007 - 13 Kb - <http://www.istedod.uz/qpage&pid=33&submenu=40&lang...> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
- [Iste'dod fondi](#) ... ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste'dod» jamg'armasi qoshidagi «Intellectual salohiyat» Markazi tomonidan vazirliklar, muassasalar,... 11.01.2007 - 11 Kb - <http://www.istedod.uz/qpage&pid=33&submenu=36&lang...> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 2. [Marifat - Kuch bilim va tafakkurda](#) ...dod» jamg'armasi qoshida 2005 yildan buyon «Intellectual salohiyat» markazi faoliyat ko'rsatmoqda. 30.12.2006 - 32 Kb - http://www.marifat.uz/manaviyat/istedod_fenomeni.m... - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie www.marifat.uz (vsego 2)
 - 3. [O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi :: Yangiliklar » » Ezgu niyatlar ijobati](#) – Bugungi zamonda intellektual salohiyat, intellektual boylik hal qiluvchi kuchga aylandi,... 07.02.2007 - 34 Kb - <http://www.mtrk.uz/uz/news/qnewsid=349> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie www.mtrk.uz (vsego 8)
 - 4. [---EcoNEWS---](#)... tayyorlash uchun barcha shart - sharoitlar mavjud : ilmiy va intellektual salohiyat ham , shunday jihozlarga bo'lgan talab ham ,... 17.01.2007 - 26 Kb - <http://econews.uznature.uz/econews/uzb/news/july.h...> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie econews.uznature.uz
 - 5. [»»» qmii.uz » uzb »](#)
Tanlov shartlariga ko'ra ishtirokchilar pazandalik, orastalik, intellektual salohiyat, ashula va raqs ijrochiligi bo'yicha o'... 11.01.2007 - 40 Kb - <http://www.qmii.uz/uzb/NEWS/news.html> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie www.qmii.uz (vsego 2)
 - 6. [/ o'zbekiston ovozi / maqolalar](#)... endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr,... 11.12.2006 - 21 Kb - <http://www.uzbekistonovozi.uz/qpart=publish&id=10&...> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 7. [Mafkuraviy muammolar: gyaoyaviy boyashliq va zararli gyaoyalarning jamiyatimizga ta'siri](#) ... - yurtimizning geopolitik nuqtai nazardan gyaoyat qulay hududda joylashgani, intellektual salohiyat va tabiiy zahiralarga boyligidir. 23.04.2003 - 9 Kb - http://zamin.freenet.uz/mig/3_4.htm - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 8. [\[PDF\] el.tfi.uz/pdf/myuhbda_uzl.pdf](#) Aql idrok va tafakkur, bilim va intellektual salohiyat, ma'naviyat va ma'rifat ...23.11.2006 - 2 Mb - http://el.tfi.uz/pdf/myuhbda_uzl.pdf - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie el.tfi.uz (vsego 3)
 - 9. [Mahalla gazetasi](#) ... kelajakda harbiy sohada ishlayman, degan fuqarodan aqliy salohiyat, ma'naviy yetuklik, intellektual saviya talab etilayapti. 26.01.2007 - 14 Kb - http://www.mahalla.uz/uzbl/tahlil_va_mulohaza/harb... - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 10. [Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti Web saytiga xush kelibsiz!](#) ... yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash orqali ilmiy salohiyat ko'rsatkichini talab darajasiga ko'tarish bo'... Institutda «Tafakkur», «Zakovat» intellektual klublari muntazam faoliyat ktsratmoqda. 23.12.2006 - 43 Kb - http://www.qdpi.uz/Index/uz_qdpi_ta%27lim.html - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 11. [Gov.uz – Kursantlar bilan uchrashuv](#) ... o'quv dargohlaridan biri hisoblangan mazkur bilim yurti katta salohiyat, moddiy texnik-o'quv bazasiga va malakali... to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, intellektual salohiyati yuksak, xalqimizga va milliy istiqloq g'oyalariga... 17.01.2007 - 15 Kb - <http://www.gov.uz/uz/content.scmqcontentId=25260> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie www.gov.uz (vsego 2)
 - 12. [:: Yosh kuch :: 9 Soni](#) ... ortiga yashiringan kuch-qudrat, jur'at va salohiyat bizni hayratga soldi. 03.11.2006 - 14 Kb - <http://www.yoshkuch.uz/9/14.html> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 13. [Samarqand Qishloq Xo'jalik Instituti](#) Fakultetda istiqbolli ilmiy salohiyat faoliyat ko'rsatib, jamoa ilm ahli «Respublikamizda... 24.01.2007 - 13 Kb - <http://samai.uzpak.uz/fakultetlar/vetfak.htm> - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie
 - 14. [Gazeta.uz](#) ... madaniyat, sayyohlik sohalarida hamkorlik uchun katta salohiyat mavjud. Bu yo'nalishlardagi aloqalarni faollashtirish uchun ikki mamlakat o'rtasida... 04.01.2007 - 35 Kb - http://www.gzt.uz/uzbl/siyosat/islom_karimov_shht... - Vosstanovit tekst - Nayti poxojie

Intellectual psixologik topishmoq

O... ni ishlatib, D... ni to'plab, I...dani mustaxkamlab, eshitgan, o'qiganini I... qilib, X...ishga tushirib, T... taxlil etib, olingan natijani X... bilan aytib berish jarayoni bu I... dir. Ishlatilgan so'zlarni quyidagi piramidaga qo'yib chiqsangiz, darsni tashkil etishning "Oltin qoida"laridan biri (psixologik)kelib chiqadi.

Sizga omad yor bo'lsin!



Qobiliyat va uning xususiyatlari

